

**MIRZO ULUG‘BEK NOMIDAGI O‘ZBEKISTON MILLIY
UNIVERSITETI HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.03/30.12.2019.FIL.01.10 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

O‘ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI

MADIYOROVA VALIDA QUVONDIQ QIZI

**ARXAIZMLAR TARJIMASIDA LINGVOMADANIY VA
LINGVOKOGNITIV XUSUSIYATLAR REPREZENTATSIYASI
(Cho‘lponning “Kecha va kunduz” asarining ingliz tiliga tarjimalari misolida)**

10.00.06 – Qiyosiy adabiyotshunoslik, chog‘ishtirma tilshunoslik va tarjimashunoslik

**FILOLOGIYA FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD) DISSERTATSIYASI
AVTOREFERATI**

Toshkent – 2025

**Filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD) по
филологическим наукам**

**Contents of Dissertation Abstract of the Doctor of Philosophy (PhD) on
Philological Sciences**

Madiyorova Valida Quvondiq qizi

Arxaizmlar tarjimasida lingvomadaniy va lingvokognitiv xususiyatlar
reprezentatsiyasi (Cho'lponning "Kecha va kunduz" asarining ingliz tiliga
tarjimalari misolida) 3

Мадиярова Валида Кувандик кизи

Репрезентация лингвокультурологических и лингвокогнитивных
особенностей при переводе архаизмов (на примере переводов произведения
Чулпана «Ночь и день» на английский язык)..... 29

Valida Quvondiq qizi Madiyorova

Representation of Linguoculturological and Linguocognitive Features in the
Translation of Archaisms (based on the examples of translations into English of
"Night and Day" by Chulpon)..... 57

E'lon qilingan ishlar ro'yxati

Список опубликованных работ
List of Published Works..... 61

**MIRZO ULUG‘BEK NOMIDAGI O‘ZBEKISTON MILLIY
UNIVERSITETI HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.03/30.12.2019.FIL.01.10 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

O‘ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI

MADIYOROVA VALIDA QUVONDIQ QIZI

**ARXAIZMLAR TARJIMASIDA LINGVOMADANIY VA
LINGVOKOGNITIV XUSUSIYATLAR REPREZENTATSIYASI
(Cho‘lponning “Kecha va kunduz” asarining ingliz tiliga tarjimalari misolida)**

10.00.06 – Qiyosiy adabiyotshunoslik, chog‘ishtirma tilshunoslik va tarjimashunoslik

**FILOLOGIYA FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD) DISSERTATSIYASI
AVTOREFERATI**

Toshkent – 2025

Filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2022.4.PhD/Fil2953 raqami bilan ro'yxatga olingan.

Dissertatsiya Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zbekiston Milliy universitetida bajarilgan.
Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy Kengash veb-sahifasining (www.nuu.uz) hamda "ZiyoNet" axborot-ta'lim portali (www.ziynet.uz) manzillarida joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:

Djumabayeva Jamila Sharipovna
filologiya fanlari doktori, professor

Rasmiy opponentlar:

Djusupov Nursultan Maxanbet uli
filologiya fanlari doktori, dotsent

Quvvatova Dilrabo Habibovna
filologiya fanlari doktori, professor

Yetakchi tashkilot:

Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti

Dissertatsiya himoyasi Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zbekiston Milliy universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.03/30.12.2019.Fil.01.10 raqamli Ilmiy kengashning 2025-yil "12" mart soat 10:00 dagi majlisida bo'lib o'tadi. Manzil: 100174, Toshkent shahri, Farobiy ko'chasi, 400. Tel.: (+99871) 246-08-62; faks: (+99871) 246-65-24; e-mail: nauka@nuu.uz. O'zbekiston Milliy universiteti, Xorijiy filologiya fakulteti (3-qavat, 3-11-xona).

Dissertatsiya bilan Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zbekiston Milliy universitetining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (____raqami bilan ro'yxatga olingan). Manzil: 100174, Toshkent shahri, Universitet ko'chasi, 4-uy. Tel.: (+99871) 246-02-24.

Dissertatsiya avtoreferati 2025-yil "____" _____ kuni tarqatildi.
(2025-yil "____" _____ dagi ____ raqamli reyestr bayonnomasi).

I.A.Siddiqova

Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash
raisi, filol.f.d., professor

Sh.O.Nazirova

Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash
ilmiy kotibi, filol. f. n., dotsent

S.E.Kamilova

Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash
qoshidagi ilmiy seminar raisi, filol.f.d.,
professor

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Jahonda xalqlarning o‘zaro aloqasi va adabiy munosabatlari natijasida kirib kelgan hamda o‘z qatlamdagi so‘zlarning eskirishi, arxaiklashish jarayonlarini o‘rganish ularning tarjimadagi muammolariga yechim topishni taqozo etmoqda. Har bir tilning o‘ziga xos xususiyatlari hamda lisoniy birliklarning lingvomadaniy va lingvokognitiv jihatlarini qiyosiy o‘rganish hozirgi kunda dolzarblik kasb etadi. Shu o‘rinda ularning tarjimada berilishi, zamonaviy va eskirgan leksik birliklarning aloqadorligi, tarjimada adekvatlikni ta‘minlashda arxaizmlarning tarjimasiga bag‘ishlangan tadqiqotlarga zarurat tug‘dirmoqda.

Dunyoda sun‘iy intellektning shiddat bilan rivojlanishi va hayotning hamma jabhalariga kirib kelishi, shuningdek, zamonaviy texnologik yangiliklar millatlararo muloqotni ta‘minlovchi tarjimashunoslikka bo‘lgan yondashuvlarga ham ta‘sir etmay qolmadi. Lekin sun‘iy intellektga asoslanuvchi DeepL, Microsoft Bing Translator, Copy AI, Chat GPT, SYSTRAN va boshqa onlayn tarjima ilovalari tarixiy matnlarda, xususan, ularda uchraydigan arxaizmlarning kontekstga mos, mazmun-mohiyatini ochib beradigan, muqobil tarjimasini ta‘minlay olmaydi. Shuningdek, o‘tmishda mavjud bo‘lgan arxaik konseptlarni tilimizning milliy tabiatini yorqin namoyon etib beruvchi antropotsentrik paradigmaga asoslanib tadqiq etish arxaizmlarning assimilyativ va leksik-semantik xususiyatlarini qiyosiy aspektda tahlil qilishni taqozo etadi. Arxaik birliklarning semantik identifikatsiyasini tartibga solish hamda me‘yorlashtirish yuzasidan takliflar ishlab chiqish arxaizmlar tarjimasida milliy xoslangan xususiyatlarni ta‘minlash usullarini aniqlashga ehtiyoj katta ekanligini ko‘rsatadi.

Mamlakatimizda olib borilayotgan islohotlar natijasida ham o‘zbek tarjimonlari, ham jahon tarjimonlari tomonidan o‘zbek badiiy nasrining yorqin namunalarini dunyo tillariga tarjima qilish kengaydi. Ma‘lumki, aksariyat holatlarda badiiy asarlarda uchraydigan arxaizmlar tarjima jarayonida tushirib qoldirilishi kuzatiladi. Buning asosiy sababi tarjimonlar tomonidan arxaizmlarning leksik-semantik, konseptual, kontekstual xususiyatlari yetarli darajada o‘rganilmaganligidadir. Shu jihatdan qaralganda, arxaizmlarni keng qamrovli tadqiq etish, ularning o‘zbek mentalitetiga xos milliy, tarixiy va kognitiv xususiyatlarni o‘rganish muhim ahamiyat kasb etadi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 13-sentyabrdagi PQ-3271-son “Kitob mahsulotlarini nashr etish va tarqatish tizimini rivojlantirish, kitob mutolaasi va kitobxonlik madaniyatini oshirish hamda targ‘ib qilish bo‘yicha kompleks chora-tadbirlar dasturi to‘g‘risida”, 2021-yil 19-maydagi PQ-5117-son “O‘zbekiston Respublikasida xorijiy tillarni o‘rganishni ommalashtirish faoliyatini sifat jihatidan yangi bosqichga olib chiqish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarorlari hamda O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son “Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida” va 2023-yil 11-sentyabrdagi “O‘zbekiston – 2030 strategiyasi to‘g‘risida”, PF-158-sonli Farmonlari hamda mazkur faoliyatga tegishli boshqa me‘yoriy-huquqiy hujjatlarda

belgilangan vazifalarni amalga oshirishda ushbu dissertatsiya tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi. Dissertatsiya fan va texnologiyalar rivojlanishining I. “Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy, madaniy, ma’naviy-ma’rifiy rivojlantirishda innovatsion g‘oyalar tizimini shakllantirish va ularni amalga oshirish yo‘llari” ustuvor yo‘nalishiga muvofiq bajarilgan.

Mavzuning o‘rganilganlik darajasi. O‘zbek hamda xorij tilshunosligida arxaizmlar masalasi yuzasidan ko‘plab ilmiy tadqiqotlar maydonga kelgan. Jumladan, o‘zbek tiliga oid eskirgan so‘zlarning tasniflanishi, arxaizm va istorizmlarning o‘ziga xosliklari bo‘yicha E.D.Polivanov, A.N.Kononov, N.A.Baskakov, V.V.Reshetov, S.I.Ibrohimov, U.T.Tursunov, F.K.Kamolov, A.Muxtorov, Sh.Rahmatullayev, D.A.Abduvaliyeva, A.D.O‘rozboyev va boshqalarning tadqiqotlari alohida ahamiyatga ega¹. Ingliz tiliga oid eskirgan so‘zlar guruhining o‘ziga xos xususiyatlari R.Trench, L.Kempbell, T.Baynon, R.Kolman, H.Jekson, A.Piterson, D.Rinj, I.R.Galperin, E.Sachkova, A.Nikolovlarning², shuningdek, arxaizm va istorizmlarning tafovutlari hamda klassifikatsiyasi masalalari N.M.Shanskiy, M.N.Nesterov, L.L.Kasatkin, T.A.Rastorguyeva, L.Lipka, I.V.Shpotova, T.V.Korosteleva hamda B.Y.Normanlarning ishlarida yoritilgan³. Biroq arxaizmlarning semantik

¹Поливанов Е.Д. Русская грамматика в сопоставлении с узбекским языком. – Ташкент: Государственное издательство УзССР, 1934. – 194 с.; Кононов Н.А. Грамматика узбекского языка. – Ташкент: Государственное издательство УзССР, 1948. – 287 с.; Баскаков Н.А. Тюркские языки. – Москва: Издательство АН ССР, 1952. – 134 с.; Решетов В.В. Узбекский национальный язык // Вопросы формирования и развития национальных языков. – Москва: Издательство АН ССР, 1960. – 122-142 с.; Решетов В.В. Основы фонетики и грамматики узбекского языка. – Ташкент: Средняя и высшая школа УзССР, 1961. – 187 с.; Решетов Р.Р., Иброхимов С.И., Турсунов У.Т., Камолов Ф.К. Ҳозирги ўзбек адабий тили. – Тошкент: Фан, 1966. – 94 б.; Турсунов У., Мухторов А., Раҳматуллаев Ш. Ҳозирги ўзбек адабий тили. – Тошкент: Ўзбекистон, 1992. – 270 б.; Абдувалиева Д.А. Алишер Навоий тарихий асарлари лексикаси: Фил. фан. фалс. докт... дис. автореферати. – Тошкент, 2017. – 64 с.; Ўрозбоев А.Д. Огаҳийнинг тарихий асарлари лексикаси: Филол. фанл. докт. дисс. – Т., 2018. – 194 с.

²Trench R.Ch. English, past and present. – New York: Charles Scribner and Company, 1871. – 55 p.; Campbell L. Historical linguistics: an Introduction. – Edinburgh: Edinburgh University Press, 1999. – 417 p.; Bynon T. Historical linguistics. – Cambridge: Cambridge University Press, 1977. – 324 p.; Coleman R. The assessment of lexical mortality and replacement between old and modern English // Papers from the 5th International Conference on English Historical Linguistics. – Amsterdam/Philadelphia: John Benjamins Pub. Co., 1990. – P. 69-86.; Jackson H. Lexicography: an Introduction. – New York: Studies in Word Use from Word Birth to Word Death // Scientific Reports. – London: Springer Nature, 2012. – 289 p.; Ringe D. From Proto-Indo-European to Proto-Germanic. – Oxford: Oxford University Press, 2017. – 416 p.; Гальперин И.Р. Стилистика английского языка. – Москва: Высшая школа, 1981. – 316 p.; Sachkova E. Lectures on English Stylistics. – Moscow: MIIT, 2012. – 84 p.; Nikolov A. Stylistic classification of the English vocabulary // Trakya Üniversitesi Edebiyat Fakültesi Dergisi. – Edirne: Trakya Üniversitesi, 2016. – Cilt: 6. – № 11. – S. 115-122.

³Шанский Н.М. Устаревшие слова в лексике современного русского литературного языка // Русский язык в школе. – Москва: Наш язык, 1954. – № 3. – 350 с.; Нестеров М.Н. Русская устаревшая и устаревающая лексика. – Смоленск: Брян.ГПИ, 1988. – 88 с.; Касаткин Л.Л., Крысин Л.П., Львов М.Р., Терехова Т.Г. Русский язык. – Москва: Просвещение, 1989. – 771 с.; Расторгуева Т.А. Очерки по исторической грамматике английского языка. – М.: Высшая школа, 1989. – 160 с.; Lipka L. An Outline of English Lexicology: Lexical Structure, Word Semantics and Word-Formation. – Tübingen: Niemeyer, 1992. – 212 с.; Шпотова И.В. Стилистическая функция – новый смысл существования лексических архаизмов: Дисс. канд. фил. наук. – М., 2003. – 250 с.; Коростелева Т.В. Архаизмы как тропическое средство в современном русском литературном языке: лингвопрагматический аспект: Дисс. канд. филол. наук. – М., 2015. – 185 с.; Норман

klassifikatsiyasi, ularning lingvomadaniy va lingvokognitiv xususiyatlariga qaratilgan ishlar ko‘lami chegaralangan.

O‘zbek badiiy asarlari tarjimasida tarixiylikni aks ettirish muammosi Sh.Isaqova, N.O‘rmonova, B.B.Yarkinova, D.M.Xoshimova va Q.A.Sidiqovlarning ishlarida⁴, tarjimada o‘zbek madaniyatiga xos milliy xususiyatlarni ifodalash masalasi M.Javbo‘riyev, H.Yusupova, R.Kasimova, U.R.Yo‘ldoshev, O.M.Fayzulloev, N.A.Tuxtaxodjayeva va boshqalarning⁵, arxaizmlar tarjimasidagi asosiy tamoyil, usul va vositalar xorij olimlari A.Fyodrov, S.Vlaxov, S.Florin, E.Meshalkina va U.Ekolarning⁶, shuningdek, tarjimada milliy-madaniy xususiyatlarning reprezentatsiyasi P.Nyumark, V.Ivir, R.Leppixalme, S.Nord, L.Venutilarning tadqiqotlarida aks etgan⁷. Biroq arxaizmlarning yangicha turi hisoblanuvchi arxaik konseptlardagi milliy-madaniy va kognitiv xususiyatlarni tarjimada aks ettirish masalasi o‘zbek tilidan ingliz tiliga tarjimalar misolida tadqiq qilinmagan.

Tadqiqotning dissertatsiya bajarilgan oliy ta’lim muassasasi yoki ilmiy tadqiqot muassasasining ilmiy tadqiqot ishlari rejalari bilan bog‘liqligi. Dissertatsiya Mirzo Ulug‘bek nomidagi O‘zbekiston Milliy universiteti ilmiy tadqiqot ishlari rejasiga muvofiq “Turli tizimli tillarning tipologik va chog‘ishtirma xususiyatlari” mavzusidagi ilmiy yo‘nalishi doirasida bajarilgan.

Б.Ю. Уходящее слово: историзм, архаизм, ногиолизм? // Коммуникативные исследования, 2016. – № 4 (10). – С. 21-38.

⁴Исакова Ш. Бадий таржимада миллийлик ва тарихийликнинг акс эттирилиши (Ойбекнинг “Навой” романининг французча таржимаси мисолида): Филол. фан. номз. ... дисс. – Тошкент, 2004. – 132 б.; Ўрмонова Н. Таржимада тарихий-архаик лексикани акс эттириш принциплари ва таржима аниқлиги (Ўзбек адабиётидан француз тилига қилинган таржималар таҳлили асосида): Филол. фан. номз. ... дисс. автореф. – Тошкент, 2008. – 26 б.; Яркинова Б.Б. Туркий тиллардан таржимада тарихий колоритнинг акс эттирилиши (Қирғиз адаби Т.Қосимбековнинг “Синган қилич” романи таржимаси мисолида): Филол. фан. номз. ... дисс. – Тошкент, 2002. – 140 б.; Хошимова Д.М. “Бобурнома” матнидаги тасвирий воситаларнинг инглиз тилига таржималари талқини: Филол. фан. д-ри... дисс. – Тошкент, 2018. – 262 б.; Сидиқов Қ.А. “Қутадғу билиг” тўртликларининг инглизча бадий таржима хусусиятлари: Филол. фан. номз. ... дисс. – Тошкент, 2010. – 155 б.

⁵Жавбуриев М. Воссоздание национального характера и исторического колорита в художественном переводе: Автореф. дис. ...канд. филол. наук. – Ташкент, 1991. – 22 с.; Юсупова Х.Ў. Ўзбек халқ оғзаки насри намуналарининг инглизча таржималарида миллий колоритнинг ифодаланиши (эртақлар, латифалар мисолида): Филол. фан. номз. ... дисс. автореф. – Тошкент, 2011. – 26 б.; Касимова Р.Р. Ўзбек тўй ва мотам маросим фольклори матнларининг инглизча таржималарида этнографизмларининг берилиши: Филол. фан. б. фалс. докт. дисс. – Тошкент, 2018. – 152 б.; Йўлдошев У.Р. Ҳажвий матнлар таржимасининг лингвостилистик ва лингвокултурологик хусусиятлари (инглиз тилига таржима қилинган ўзбек халқ латифалари мисолида): Филол. фан. б. фалс. докт. ... дисс. – Тошкент, 2017. – 164 б.; Файзуллоев О.М. Ўзбек фольклоридаги лингвокултуремаларнинг инглизча таржимада берилиши (болалар фольклори ва эртақлари мисолида): Филол. фан. б. фалс. докт. ... дисс. – Тошкент, 2019. – 160 б.; Тухтаходжаева Н.А. Бадий таржимада лингвокултуремаларнинг ифодаланиши (инглиз ва ўзбек тиллари мисолида): Филол. фан. фалсафа докт. ... дис. – Тошкент, 2017. – 142 б.

⁶Федоров А.В. Основы общей теории перевода (Лингвист. проблемы). – М.: Филология три, 2002. – 332 с.; Влахов С., Флорин С. Непереводимое в переводе. – Москва, 1980. – 340 с.; Мешалкина Е.Н. Стратегии исторической стилизации в художественном переводе (на материале англоязычной художественной литературы XVIII-XX вв.): Дис. ... канд. филол. наук. – Москва, 2008. – С. 109; Eco U. Experiences in Translation. – Toronto: University of Toronto Press, 2000. – P. 135.

⁷Newmark P. Textbook of translation. – New York, London, Toronto, Sydney, Tokyo: Prentice Hall, 1988. – P. 98.; Ivir V. Procedures and strategies for the translation of culture // Translation Across Cultures. – New Delhi: Bahri, 1987. – P. 35-46.; Leppihalme R. Culture bumps. – Clevedon, England: Multilingual Matters, 1997.; Nord C. Translation as a process of linguistic and cultural adaptation // Teaching translation and interpreting. – Copenhagen: John Benjamins Publishing Company, 1994. – № 2. – P. 59-67.; Venuti L. Strategies of translation // Encyclopedia of translation studies. – London and New York: Routledge, 1998. – P. 240-244.

Tadqiqotning maqsadi o‘zbek badiiy asarlarining ingliz tiliga tarjimasida arxaizmlarning lingvomadaniy va lingvokognitiv xususiyatlari reprezentatsiyasidagi muammolarni aniqlash hamda ularning yechimiga doir taklif va tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

o‘zbek va ingliz tillarida arxaizmlarni semantik hamda lingvokognitiv yondashuvlar asosida tasnif qilish;

arxaizmlar tarjimasiga ta’sir qiluvchi asosiy omillar va tarjima jarayonida yuzaga keluvchi lisoniy-madaniy muammolarni aniqlash;

o‘zbek milliy madaniyatiga oid birliklarning asl mohiyatini tarjimada saqlab qolish yuzasidan samarali usullarni dalillash;

arxaik konseptlar tarjimasida dunyoning tarixiy-madaniy manzarasini qayta yaratishga xizmat qiluvchi usullarni lingvokognitiv nuqtayi nazardan aniqlash va asoslash.

Tadqiqotning obykti sifatida Abdulhamid Cho‘lponning “Kecha va kunduz” romanidagi arxaizmlarning tarjimasini olingan.

Tadqiqotning predmetini o‘zbek badiiy asarlarining ingliz tiliga tarjimasida arxaizmlarning lingvomadaniy va lingvokognitiv xususiyatlari reprezentatsiyasi tashkil etadi.

Tadqiqot usullari. Tadqiqotda komponent tahlil, kontent tahlili (N-Vivo), tasniflash, qiyosiy, chog‘ishtirma, konseptual hamda distributiv tahlil usullaridan foydalanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

arxaik konseptlarning mavjudligi asoslangan, tibbiy, zoonimik, fitonimik, toponimik, gidronimik, kosmonimik, kasbiy, vaqtga oid arxaizm turlari aniqlangan;

badiiy asarning yaratilish davri, arxaizmning semantik identifikatsiyasi, tarixiy va zamonaviy shakl omonimiyasi, arxaik grammatik shakllar, talaffuzda o‘zgarishga uchragan o‘zlashmalar arxaizmlar tarjimasiga ta’sir qilishi ochib berilgan;

deskriptiv usul bilan kontekstual ma’noni ochib berish, arxaizmlarning etik jihatlarini va muallifning ichki intensiyasini inobatga olish arxaik birliklar tarjimasida muhimligi dalillangan;

arxaizatsiyaning arxaik konseptlar tarjimasiga ta’sir qilishi freym ko‘chishi (frame shift) hodisasi orqali dalillanib, tarixiy-madaniy manzarani tarjimada qayta yaratishda konseptual distributsiya usulining samaradorligi asoslangan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

arxaizmlarning semantik o‘ziga xos xususiyatlari ochib berilishi, shuningdek, arxaik konseptlarning tarixiy yondashuv nuqtayi nazaridan tahlili diaxron tarjimada adekvatlikka erishish imkonini yaratgan;

arxaizmlarga xos lingvomadaniy xususiyatlarning tarjima jarayonidagi roli aniqlanib, ularning kontekstual mohiyatini ochib berishda tarixiy-madaniy manzaraning o‘ziga xos jihatlari e’tiborga olinishi muhimligi asoslangan;

arxaizmlarning lingvokognitiv tahlil qilinishi natijasida arxaik konseptlar

aniqlangan va ularning tarjimasida konseptual distributsiya metodining samaradorligi isbotlangan;

arxaizmlarning badiiy asarlardagi turlarining lingvomadaniy va lingvokognitiv xususiyatlari o'rganilishi natijasida "Arxaizmlarning o'zbekcha-inglizcha izohli lug'ati"ni yaratishga doir amaliy taklif va tavsiyalar ishlab chiqilgan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi muammoning aniq qo'yilgani, nazariy ma'lumotlarni dalillashda aniq ilmiy manbalarga tayangan holda ish olib borilgani, materiallar ilmiy nuqtayi nazardan sinalgan metodlar asosida tavsif etilgani, nazariy fikr va xulosalarning amaliyotga joriy etilgani, olingan natijalarning vakolatli tashkilotlar tomonidan tasdiqlangani bilan asoslanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati arxaizmlarning badiiy tarjimada olamning milliy manzarasini va milliy koloritini qayta yaratish, hozirgi o'zbek tarixiy nasriy asarlari tarjimasini tamoyillari va uning xususiyatlari bilan bog'liq muammolarni hal etishda keyingi tadqiqotlar uchun nazariy manba bo'lib xizmat qilishi bilan belgilanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati o'zbek tarixiy badiiy asarlaridagi arxaizmlarni dunyo tillariga tarjima qilishda ishlab chiqilgan taklif va tavsiyalardan foydalanish orqali adekvat tarjimaga erishish imkonini oshirishda hamda "Tarjima nazariyasi va amaliyoti", "Badiiy tarjima", "Stilistika", "Matn tahlili", "Leksikologiya" kabi fanlar bo'yicha maxsus kurs va seminarlar tashkil etishda, darslik, o'quv qo'llanmalar yaratishda, izohli lug'atlar, onlayn platformalarni, shuningdek, til korpuslarini takomillashtirishda foydalanish mumkinligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliyotga joriy qilinishi. Abdulhamid Cho'lponning "Kecha va kunduz" asarining ingliz tiliga tarjimalarini o'rganish hamda lingvomadaniy va lingvokognitiv ifoda elementlarini tarjima qilish usullarini aniqlash bo'yicha olingan ilmiy natijalar asosida:

arxaik konseptlarning mavjudligi asoslanganligi, tibbiy, zoonimik, fitonimik, toponimik, gidronimik, kosmonimik, kasbiy, vaqtga oid arxaizm turlari aniqlanganligiga doir taklif va tavsiyalardan O'zbekiston Respublikasi Fanlar Akademiyasi Xorazm Ma'mun Akademiyasining A-FA-2019-9 shifrlil "Qadimiy yozma noyob qo'lyozma va manbalarni tadqiq qilish, ularning raqamlashtirilgan bibliotekasini yaratish" amaliy loyihasi doirasida bajarilgan Ogahiy "Asarlar" silsilasining 6-9 jildlarini nashrga tayyorlash va chop etishda foydalanilgan (O'zbekiston Respublikasi Fanlar Akademiyasi Xorazm Ma'mun Akademiyasining 2024-yil 19-avgustdagi №137/2-24-son ma'lumotnomasi). Natijada raqamlashtirilgan biblioteka saytidagi tarixiy asarlarning ingliz tilidagi izohlari hamda ularning ma'lum qismlari tarjimalari takomillashtirilgan;

badiiy asarning yaratilish davri, arxaizmning semantik identifikatsiyasi, tarixiy va zamonaviy shakl omonimiyasi, arxaik grammatik shakllar, talaffuzda o'zgarishga uchragan o'zlashmalar arxaizmlar tarjimasiga ta'sir qilishi ochib berilganligiga doir ilmiy xulosalardan Respublika Ma'naviyat va ma'rifat markazining 2023-yil uchun chora-tadbirlar dasturining XI yo'nalishida belgilangan "Davlat tilini rivojlantirish, uning targ'iboti va bu boradagi ishlarni

muvofiglashtirish” 54-bandi “Buyuk ajdodlarimizning ilmiy merosi, ularning ibratli hayot yo‘li hamda jahon sivilizatsiyasini rivojlantirishga qo‘shgan hissalarini keng targ‘ib qilish, ular haqidagi ma‘lumotlar bilan Internet tarmog‘ini boyitib borish” mavzusida targ‘ibot ishlarini tashkil etish va o‘tkazishda foydalanilgan (Respublika ma‘naviyat va ma‘rifat markazi huzuridagi ijtimoiy ma‘naviy tadqiqotlar institutining 2024-yil 16-avgustdagi 351-son ma‘lumotnomasi). Natijada dissertatsiyada ilgari surilgan takliflar, tavsiya va xulosalar o‘zbek badiiy nasriga oid tarixiy asarlar tarjimalarini mukammallashtirishda manba sifatida xizmat qilgan;

deskriptiv usul bilan kontekstual ma‘noni ochib berish, arxaizmlarning etik jihatlarini va muallifning ichki intensiyasini inobatga olish arxaik birliklar tarjimasida muhimligi dalillanganligiga oid ilmiy-amaliy taklif hamda tavsiyalardan 2021-2022-yillarga mo‘ljallangan “Haft shuaro” majmuasini o‘rganish orqali XIX asr Xorazm vohasining milliy-ma‘naviy merosini tadqiq qilish va (o‘zbek, rus, ingliz tillarida) elektron ilovasini yaratish” mavzusidagi IL-402104155-raqamli amaliy loyihada foydalanilgan (Muhammad al-Xorazmiy nomidagi Toshkent axborot texnologiyalari universiteti Urganch filialining 2024-yil 8-avgustdagi 874-son ma‘lumotnomasi). Natijada elektron ilovaning ilmiy mazmuni boyitilgan va undagi milliy xoslangan arxaik so‘zlarning tarjimai takomillashtirilgan;

arxaizatsiyaning arxaik konseptlar tarjimasiga ta‘sir qilishi freym ko‘chishi (frame shift) hodisasi orqali dalillanib, tarixiy-madaniy manzarani tarjimada qayta yaratishda konseptual distributsiya usulining samaradorligi asoslanganligiga doir xulosalardan O‘zbekiston Milliy teleradiokompaniyasining “O‘zbekiston” teleradiokanali DM tomonidan tayyorlangan “Adabiy jarayon”, “Ta‘lim va taraqqiyot” nomli radioeshittirishlarining 2024-yil yanvar va may sonlarida foydalanilgan (O‘zbekiston Milliy teleradiokompaniyasining 2024-yil 8-avgustdagi 04/36-921-son ma‘lumotnomasi). Natijada tadqiqot ishida berilgan freymlar milliy madaniy xatti-harakat va jarayonlarning, urf-odatlarining interpretativ manbasi bo‘lib xizmat qilishi haqidagi ma‘lumotlar radiotinglovchilarning qiziqishini oshirgan.

Tadqiqot natijalarining aprotatsiyasi. Dissertatsiya natijalari bo‘yicha 2 ta xalqaro va 2 ta respublika ilmiy-amaliy anjumanlarida ma‘ruzalar qilingan, ilmiy-metodik seminarlarda muhokamadan o‘tkazilgan.

Tadqiqot natijalarining e‘lon qilinishi. Dissertatsiya mavzusi bo‘yicha jami 15 ta ilmiy ish chop etilgan, shulardan, O‘zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda jami 11 ta, jumladan, 6 ta respublika va 5 ta xorijiy ilmiy jurnallarda, xususan, bitta ilmiy maqola Scopus bazasida indekslangan jurnalda nashr etilgan.

Dissertatsiyaning hajmi va tuzilishi. Dissertatsiya kirish, uch bob, xulosa va foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxatidan iborat bo‘lib, umumiy hajmi 130 betni tashkil qiladi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Kirish qismida mavzuning dolzarbligi va zarurati, tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi, dissertatsiya bajarilayotgan oliy ta‘lim muassasasi ilmiy tadqiqot ishlari bilan bog‘liqligi, muammoning o‘rganilganlik darajasi, tadqiqotning maqsad va vazifalari, obyekt va predmeti, usullari aniqlangan, ilmiy yangiligi, amaliy natijalari va ularning ishonchliligi, olingan natijalarning ilmiy va amaliy ahamiyati, tadqiqot natijalarining amaliyotga joriy qilinganligi, aprobatsiyasi, nashr etilgan ishlar soni va dissertatsiyaning tuzilishi bo‘yicha ma‘lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning birinchi bobi **“O‘zbek va ingliz tillarida eskirgan so‘zlarning tavsifi va tasnifi”** deb nomlanib, unda o‘zbek va ingliz tillarida arxaizmlarning xususiyatlari, ularning eskirgan so‘zlar ko‘lamida tutgan o‘rni hamda til sathlari, tarkibidagi komponentlari, shuningdek, eskirish darajasiga ko‘ra turlari haqida so‘z boradi. Jumladan, XX asrning ikkinchi yarmida o‘zbek tilshunosligiga doir olib borilgan tadqiqotlarda arxaizm terminini uchratsak-da, eskirgan so‘zlarning tavsifi va xususiyatlari haqidagi ma‘lumotlar juda kam. 60-80-yillarga kelib esa, tilning aktiv va passiv qatlamini o‘rganishga bo‘lgan e‘tibor oshib, bu sohada prof. F.K.Kamolov ilk marta o‘zbek tilidagi so‘zlarni aktiv va passiv so‘zlarga ajratib, arxaik so‘zlar guruhining mavjudligini qayd etadi⁸. A.Xojiyev va A.Ahmedov tahriri ostida yaratilgan asarda esa⁹, eskirgan so‘zlarning alohida kategoriya sifatida berilganining guvohi bo‘lamiz. O‘zbek tilidagi eskirgan so‘zlarning arxaizm va istorizm sifatida ajratilishini ilk bor 1965-yilda U.Tursunov, A.Muxtorov va Sh.Rahmatullayevlar tahriri ostida nashr qilingan “Hozirgi o‘zbek adabiy tili” darsligida uchratamiz¹⁰. 90-yillardan keyingi adabiyotlarda esa, tildagi eskirgan elementlarni aniqlashda leksik birliklarning qo‘llanish chastotasini inobatga olishga alohida urg‘u berilib, bu jihatdan tilning leksik fondi faol va nafaol birliklar singari ikki toifaga ajratila boshladi hamda o‘z-o‘zidan nafaol birliklarning ma‘lum qismi eskirgan elementlardan iborat ekanligi qayd qilinadi. Muayyan tilning lug‘at tarkibi aktiv va passiv leksikaga ajratilib, o‘z navbatida, passiv leksika tarkibiga iste‘moldan chiqib ketgan so‘zlar, jumladan, tarixiy so‘zlar va arxaizmlar mansub bo‘ladi. Tildagi faol va nafaol leksemalar o‘rtasida aniq bir chegara mavjud emas hamda bir paytlar nafaol hisoblangan leksemalar bir kun kelib faol qo‘llanilishi mumkin.

Inglizabon olimlar tomonidan eskirgan so‘zlarga bag‘ishlangan tarixiy leksikologiyaga doir ilmiy tadqiqotlar XIX-XX asrlarda shiddat bilan rivojlangan bo‘lsa-da, bu borada amalga oshirilgan ishlarning markaziy mavzusi ingliz tili lug‘at boyligining etimologik xususiyatlari hamda turli davrlarda tilda ro‘y bergan o‘zgarishlar bilan chegaralanib qolgan. Shu sababdan, eskirgan so‘zlar bo‘yicha dastlabki tadqiqotlarni R.Trench, E.Dayk va R.Kolmanning ishlarida ko‘rishimiz

⁸Решетов Р.Р., Иброҳимов С.И., Турсунов У.Т., Камолов Ф.К. Ҳозирги ўзбек адабий тили. – Тошкент: Фан, 1966. – Б. 94.

⁹Ҳожиёв А., Аҳмедов А. Ўзбек тили лексикологияси. – Тошкент: Фан, 1981. – Б. 42-43.

¹⁰Турсунов У., Мухторов А., Раҳматуллаев Ш. Ҳозирги ўзбек адабий тили. – Тошкент: Ўзбекистон, 1992. – Б. 163-164.

mumkin xolos¹¹. Mazkur mavzudagi korpusga asoslangan asosiy tadqiqotlar ham amalga oshirilgan bo‘lib, ularda, asosan, leksemalar eskirishining tildagi yangi so‘zlarning paydo bo‘lishiga ta’siri aks etadi. E.Dayk ingliz tiliga mansub so‘zlarni tarixiylik jihatdan guruhlariga ajratgan dastlabki olimlardan biri bo‘lib, ilk bor arxaizmlarga nisbatan “obsoletism” (eskirgan, yaroqsiz so‘z) terminini qo‘llagan¹². Muallif, shuningdek, qadimiy (ing. *ancient*) va zamonaviy (ing. *modern*) so‘zlar guruhlarini farqlab, qadimiy so‘zlar deganda, istorizmlarni nazarda tutgan.

Ingliz tiliga xos eskirgan so‘zlarning davriy lug‘atlari va korpuslari ham mavjud bo‘lib, “The Thesaurus of Old English”, “The Historical Thesaurus of English”, “The Encyclopedia of ARDA” kabi onlayn lug‘atlar va COHA, Brown family, Old English Corpus, CoRD¹³ kabi ingliz tili korpuslari shular jumlasidandir. Ingliz tiliga oid leksikografik manbalarning ko‘pchiligida davriy yondashuv yetakchilik qiladi, biroq eskirgan so‘zlarning qo‘llanilish xususiyatiga ko‘ra turlariga qaratilgan manbalar soni cheklangan.

Tilshunoslikda arxaizmlar tadqiqi borasida amalga oshirilgan ishlarning aksariyat qismi ularning turlari, tiplari, aniqrog‘i klassifikatsiyasini ishlab chiqishga qaratilgan bo‘lib, bu borada bir qancha yondashuvlar mavjud. Arxaizmlarning turlariga oid tadqiqotlarda, asosan, semantik, fonetik, morfologik sathlarning eskirishi bilan bog‘liq omillar asos qilib olinadi. Mazkur masalaga qaratilgan dastlabki tadqiqotlardan biri N.M.Shanskiy tomonidan amalga oshirilgan bo‘lib, muallif arxaizmlarni leksik, semantik, frazeologik, leksik-sintaktik kabi guruhlariga ajratadi¹⁴. Keyingi davrlarda ushbu arxaizmlar klassifikatsiyasiga qo‘shimcha tarzda fonetik arxaizmlarning turi sifatida aksentli arxaizmlar (акцентные архаизмы), so‘zlarning yozilish shakli bilan bog‘liq orfografik arxaizmlar hamda morfologik va sintaktik arxaizmlarni o‘z ichiga oluvchi grammatik arxaizmlar qayd qilindi.

Arxaizm turlarini belgilashda til sathlaridan boshqa omillar ham asos sifatida olinganligini ko‘rishimiz mumkin. Xususan, so‘zning markaziy tarkibiy komponentlariga ko‘ra bir o‘zakli va ikki o‘zakli arxaizmlar, eskirish darajasiga ko‘ra izolyatsiyalangan va izolyatsiyalanmagan arxaizmlar, shuningdek, tuzilishiga ko‘ra sodda, qo‘shma, juft va takroriy arxaizmlar mavjud.

O‘zbek olimlarining ishlarida arxaizmlarning lug‘aviy va grammatik kabi ikkita turi mavjudligiga doir qarashlar mavjud¹⁵. Grammatik arxaizmlar o‘zbek tilida ko‘p uchramasligi bilan ajralib turadi, bunday arxaizmlarga misol tariqasida

¹¹Trench R.Ch. English, past and present. – New York: Charles Scribner and Company, 1871.; Coleman R. The assessment of lexical mortality and replacement between old and modern English // Papers from the 5th International Conference on English Historical Linguistics. – Amsterdam/Philadelphia: John Benjamins Pub. Co., 1990. – P. 69-86.

¹²Dike E.B. Obsolete English words: some recent views // The Journal of English and Germanic Philology. – Illinois: University of Illinois, 1935. – № 34 (3). – P. 351-365.

¹³<https://oldenglishthesaurus.arts.gla.ac.uk/>; <https://ht.ac.uk/>; <https://www.glyphweb.com/arda/words.php>; <https://www.english-corpora.org/compare-smallCorpora.asp>; <http://korpus.uib.no/icame/manuals/INDEX.HTM>; <https://www.library.ucdavis.edu/database/old-english-corpus/>; <https://varieng.helsinki.fi/CoRD/corpora/DOEC/>

¹⁴ Шанский Н.М. Устаревшие слова в лексике современного русского литературного языка // Русский язык в школе. – Москва: Наш язык, 1954. – № 3.

¹⁵Турсунов У., Мухторов А., Рахматуллаев Ш. Ҳозирги ўзбек адабий тили. – Тошкент: Ўзбекистон, 1992. – Б. 163-164.

sifatdosh formasini yasovchi “-mish” (zamonaviy shakli: -gan) affiksini keltirish mumkin. Shuningdek, talaffuz shakli tarixiy jarayonlar natijasida o‘zgargan talaffuz arxaizmlari yoki fonetik-leksik arxaizmlar (“sovun” so‘zining “sobun” tarzida talaffuz qilinish shakli, “intilish” so‘zining “umtilish” shaklida talaffuz qilinishi), frazeologik arxaizmlar (“dasti alif-lom qilib”, “Oppoqxo‘ja ursin”) kabi turlari ham mavjud.

Arxaizmlarni struktur jihatdan tahlil qilish jarayonida aniqlandiki, o‘zbek tilida ikkita so‘zdan iborat birikmalar ham mavjud bo‘lib, ular birgalikda arxaik birikma hisoblanadi. Ularning uch xil turini farqlash mumkin:

a) birikmaning bitta a‘zosi arxaizm, ikkinchisi arxaizm emas: *bir qur, teng-to‘sh, birinchi daf‘a, har sana, elchib kelmoq, pistoqi ta‘zim;*

b) birikmaning har ikki a‘zosi arxaizm: *asoli maslak;*

c) birikmaning ikkita a‘zosi ham arxaizm bo‘lmagan holatlar ham kuzatildiki, ular faqatgina birikkanda arxaik ma‘no kasb etadi: *ishqi haqiqiy, ibtidoiy tarbiya, tuzuk-quruq, kamoli hayron.*

Umuman olganda, arxaizmlarni klassifikatsiyalash muammosi haligacha o‘z yechimini topmagan bo‘lib, bu borada yakdil qarorga kelinmaganligining asosiy sabablaridan biri, tillarning o‘ziga xos xususiyatlaridir. Ya‘ni bir tilga mansub bo‘lgan arxaizm turi ikkinchi tilda mavjud bo‘lmasligi tabiiy hol. Shu sababli, arxaizmlar klassifikatsiyasiga yondashuvlar xilma-xilligicha qolaveradi.



1-rasm. Arxaizmlarning semantik kategoriyalari

Yuqoridagi tahlillardan ayon bo‘ladiki, mavjud klassifikatsiyalarda, asosan, til sathlari, so‘zlarning tuzilishi hamda eskirish darajasi asos sifatida olingan. Lekin zamonaviy tilshunoslik nuqtayi nazaridan kelib chiqadigan bo‘lsak, arxaizmlarning o‘ziga xos xususiyatlari jihatidan ham turlarga ajratish mumkin. Xususan, ingliz va o‘zbek tillaridagi arxaizmlarning semantik kategoriyalari bo‘yicha bir qancha guruhlari mavjudligini aniqladik (1.1.-rasm).

Bundan tashqari, tarjimashunoslik nuqtayi nazaridan P.Nyumark milliy-madaniy kategoriyalarni (Cultural categories) taqdim qiladi¹⁶. Bularga ekologik madaniyat bilan bog‘liq leksika (flora, fauna, shamol, tepalik, tekisliklarning turlari), ya‘ni hududiy, geografik ahamiyatga ega va tabiatga oid milliy xoslangan so‘zlar; moddiy madaniyatga mansub so‘zlar, ya‘ni artifaktlar, jumladan, oziq-ovqat, kiyim-kechak, uy binolari, inshootlar, transport vositalari bilan bog‘liq so‘zlar; ijtimoiy madaniyat, ya‘ni aholining ijtimoiy hayoti, ishi, dam olish faoliyatiga aloqador bo‘lgan so‘zlar; ijtimoiy-siyosiy tashkilotlar, urf-odat, an‘analar bilan bog‘liq faoliyat, jarayonlar va konseptlarga oid so‘zlar, jumladan, siyosiy, adminstrativ, diniy yoki san‘at bilan bog‘liq so‘zlar hamda imo-ishora va xatti-harakat bilan bog‘liq so‘zlar mansubdir.

Tadqiqotimiz predmeti sanalgan arxaizmlarni ham yuqoridagi kategoriyalariga xos turlarini aniqlash ularning lingvomadaniy xususiyatlarini e‘tiborga olgan holda tarjimada qayta yaratilishini ta‘minlashga xizmat qiladi. Shu sababli, biz tahlilga tortgan Cho‘lponning “Kecha va kunduz” asarida uchraydigan arxaizmlarni yuqoridagi kabi kategoriyalarga ajratib, bundan tashqari, o‘sha davr shaxslararo munosabatlarda kuzatilgan nutqiy muloqot madaniyatiga oid arxaizmlar kategoriyasini ham qo‘shishini lozim deb topdik. Arxaizmlarni ingliz tiliga tarjima qilish jarayonida ularning qaysi kategoriyaga xos ekanligini belgilash ularning o‘sha davr nuqtayi nazaridan matn mazmuniga mos lingvomadaniy xususiyatini inobatga olgan holda, tarjimada qayta yaratilishida muhim jihat hisoblanadi. Kontent tahlili asosida matnlarni kodlash va tematik tahlil qilishda qo‘llaniluvchi NVivo platformasidan foydalangan holda, P.Nyumarkning milliy-madaniy kategoriyalar tasnifiga mos arxaizmlarni kodlaganimizda, milliy-madaniy arxaizmlarning nisbiy subkategoriyalari aniqlandi. Natijalarga ko‘ra, eng faol va ko‘p chastotaga ega arxaizmlarning yetakchi kategoriyalari quyidagilarni tashkil qildi (1.2.-rasm).

¹⁶Newmark P. Textbook of translation. – New York, London, Toronto, Sydney, Tokyo: Prentice Hall, 1988. – P. 98.

Ekologik madaniyatga oid arxaizmlar

- *Fasllar*: hamal (bahor), saraton (yoz)
- *Kun qismlari*: namozgar (tushdan keyin), sahar (ertalab)

Moddiy madaniyatga oid arxaizmlar

- *Uy qismlari va jihozlari*: kart (krovat), ganjina (ombor)
- *Ovqat turlari*: qo‘g‘urma (qovurma)
- *Kiyim va aksessuar turlari*: ko‘z oynak (ko‘zoynak)
- *Hujjatlar*: boshput (passport), depesha (telegramma)

Ijtimoiy madaniyatga oid arxaizmlar

- *Etnonimlar*: sart yoki sartiya (o‘zbek yoki tojik), farang (fransuz, fransuzcha, yepropalik, yevropacha), amirkon (Amerikada ishlab chiqarilgan, amerikacha, amerikalik)
- *Ijtimoiy guruhlar*: ahli ilm (olimlar), tolibi ilm (talabalar), hamshahr (hamshahar), teng-to‘shlar (tengdoshlar), ahliya (rafiqa, xotin, qiz, oiladagi ayollar)

Urf-odat va an‘analarga oid arxaizmlar

- evlanmoq yoki xotin oluv (uylanmoq), sevinchilamoq (suyunchi so‘ramoq), zuriyotlik yoki bezuriyot (farzandli yoki befarzand), aytmoq (mehmonga chaqirmoq, taklif qilmoq), izmon (mezbon)

Imo-ishora va xulq-atvor madaniyatiga oid arxaizmlar

- pistoqi ta‘zim qilmoq (soxta muomala qilish), chas bermoq (hurmat qilmoq)

Nutqiy muloqot madaniyatiga oid arxaizmlar

- *Evfemistik arxaizmlar*: zoti mukarram, janobi oliylari, zoti muhtaram (hurmatli)
- *Disfemistik arxaizmlar*: xudo bexabar, betavfiq, bachchag‘ar, xotin taloqi, battol, benamoz (so‘kinish)

2-rasm. Arxaizmlarning milliy-madaniy jihatdan klassifikatsiyasi

Arxaizmlarning yuzaga kelishida talaffuz va tovushning (fonetik arxaizm), so‘z shaklining (arxaizm leksema), qo‘shimchani (affiksial arxaizm), semalardan birining (arxaizm semema), frazeologik shaklning (frazeologik arxaizm) eskirishi asos bo‘lgan bir paytda, konseptlarning eskirishidan ham arxaizmlarning muayyan turi paydo bo‘lishini rad etib bo‘lmaydi. Bunday arxaizmlarni biz *konseptual arxaizm* yoki *arxaik konsept* deb atadik. Arxaik konseptlar – o‘tmishda mavjud bo‘lgan, hozirda ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy o‘zgarishlar ta‘sirida nominativ xususiyati eskirgan konseptlar bo‘lib, ular zamonaviy til tashuvchilarining ongida boshqa nom ostida qisman funksional xususiyatlarini saqlab qolgan so‘z yoki so‘z birikmalaridir.

Dissertatsiyaning ikkinchi bobi “**Badiiy tarjimada arxaizmlarning lingvomadaniy xususiyatlari**” deb nomlanadi. Unda tarjima jarayonida arxaik birliklarni ifodalashda yuzaga keladigan muammolar va ularni bartaraf etishga qaratilgan asosiy tamoyillar, shuningdek, arxaizmlar tarjimasida lingvomadaniy xususiyatlarning aks etishi masalalari tahlilga toritilgan.

So‘nggi yillarda o‘zbek tilidagi tarixiy matnlarni tarjima qilish muammolariga qaratilgan bir qator ilmiy tadqiqotlar yuzaga kelgan bo‘lib, ular, asosan, ikki

yoʻnalishda amalga oshirilgan, birinchi yoʻnalishni tarixiy-arxaik leksikaning, tarixiylikning hamda tarixiy koloritning tarjimada aks etishi masalalariga bagʻishlangan ishlar tashkil qilsa, ikkinchi yoʻnalishga mansub ilmiy ishlar muayyan bir tarixiy asarlar tarjimasiga qaratilgan tadqiqotlardir.

Tarjimashunoslikka oid tadqiqotlarda tarjima jarayonining uch bosqichli ekanligi (asliyat matnini idrok qilish, uning tarjima tilidagi ekvivalentini topish hamda asliyat va tarjima matnining mosligini tekshirish) qayd etilsa, arxaizmlar tarjimasiga alohida yondashuv talab etiladi. Chunki arxaizmlarning tarjimasi ham ichki, ham tashqi tarjimani oʻz ichiga oluvchi murakkab jarayondir. Tarjimon, avvalo, arxaizmning hozirgi zamonaviy tildagi talqinini oʻrganadi, keyin chet tiliga tarjimasini amalga oshiradi. Ammo mana shu birinchi bosqichda, yaʼni arxaizmning zamonaviy ekvivalentini topishda tarjimon aksariyat holatlarda xatoga yoʻl qoʻyadi. Arxaizmning zamonaviy ekvivalentini topish jarayonida arxaizmlarning notoʻgʻri semantik identifikatsiyasiga taʼsir qiluvchi tarixiy shakl va zamonaviy shakl omonimiyasi, arxaik grammatik shakllar, talaffuzda adaptatsiyaga uchragan oʻzlashmalar kabi bir qator lingvistik va ekstralingvistik omillar mavjudligini inobatga olish zarur.

Arxaizmlarni tarjima qilishda mutarjim turli strategiya va tamoyillardan foydalanadi. U.Ekoning fikriga koʻra, tarixiy matnlarni tarjima qilishning asosiy strategiyalari arxaizatsiya va modernizatsiyadir¹⁷. Yaʼni tarixiy asarlarni tarjima qilish jarayonida arxaizmni eskirgan soʻz bilan ifodalash, yoki uni zamonaviylashtirib tarjima qilish mumkin. D.S.Lixachev oʻzining poetik asarlarni diaxron tarjima qilish strategiyasini izohli (объяснительный) tarjima deb ataydi¹⁸. A.V.Fyodorov maʼlum bir tarixiy davrda yaratilgan asarlarni tarjima qilishda arxaik vositalardan foydalanish, modernizatsiya (zamonaviylashtirish), neytralizatsiya (neytrallashtirish) hamda kombinatsion usullari mavjudligini taʼkidlaydi¹⁹.

Oʻtgan asrning 80-yillarida tarjimashunoslikda “madaniy burilish” deb nom olgan yangi maktabning paydo boʻlishi bilan, asosiy eʼtibor faqat ekvivalent qidirishga emas, balki asliyat matnining oʻziga xos milliy koloritini saqlashga qaratila boshladi. Lingvomadaniy xususiyatlarni aks ettirishga qaratilgan aksariyat ishlarda lingvokulturemalar, realiyalar, lakunar birliklar tadqiqotlarning asosini tashkil qiladi. Lekin arxaizmlarning hammasi ham lingvokulturema, lakuna yoki realiya boʻla olmasligi tufayli, biz uchun mazkur yondashuvdan foydalanishimiz kutilgan natija bermaydi. Chunki shunday arxaizmlar borki, ular toʻliqligicha emas, balki maʼlum bir maʼno nozikliklari bilan milliy-madaniy xususiyat kasb etadi. Shu sababli, arxaizmlarning xalq milliy madaniyati bilan chambarchas aloqasini inobatga olib, ularning tarjimasiga lingvomadaniy jihatdan yondashishda milliy-madaniy kategoriyalarni eʼtiborda tutish zarurdir.

¹⁷Eco U. *Experiences in Translation*. – Toronto: University of Toronto Press, 2000. – P. 135.

¹⁸Лихачев Д.С. Слово о полку Игореве – героический пролог русской литературы. – Москва: Художественная литература, 1961. – С. 134.

¹⁹Федоров А.В. Основы общей теории перевода (Лингвистические проблемы). – Санкт Петербург: Филология три, 2002. – С. 98.

Jahon tarjimashunosligida milliy xoslangan leksikani o'g'irishning samarali usullari bo'yicha tadqiqotlar ko'pchilikni tashkil qiladi. Shular qatorida mazkur sohaning eng yirik olimlari P.Nyumark, V.Ivir, R.Leppixalmelarning ishlari o'zining keng qamrovliligi bilan ajralib turadi. Milliy xoslangan leksikani tarjima qilish usullarining eng afzali va keng qamrovlisi P.Nyumark tomonidan taklif qilingan bo'lib, u transfer usuli (transliteratsiya va transkripsiya), naturalizatsiya, madaniy ekvivalent, funksional ekvivalent, deskriptiv ekvivalent, komponent tahlil, sinonimlardan foydalanish, kalkalash, ko'chirish yoki transpozitsiya, modulyatsiya, rekognitiv tarjima, kompensatsiya, parafraza qilish, izoh berish kabi usullarni sanab o'tadi²⁰. V.Ivirning ishida esa milliy xoslangan leksikani tarjima qilishning yuqoridagilarga qo'shimcha tarzda "cultural borrowing, lexical creation, deliberate omission"²¹ kabi turlari, ya'ni "madaniy o'zlashma, leksik yasama, ataylab tushirib qoldirish" keltirilsa, R.Leppixalmening fikriga ko'ra, agar tarjima tili va asliyat tiliga oid madaniyatlar bir-biriga yaqin bo'lsa, etnomadaniy leksikani to'g'ridan to'g'ri tarjima qilish (transliteratsiya) samaralidir²². Yana boshqa manbalarda kalkalash va madaniy adaptatsiya usullari afzal deb qaralsa, funksional tarjima nazariyasi tarafdorlari milliy-madaniy leksikani tarjima qilishda giperonimlardan foydalanish o'quvchining tarjima qilinayotgan madaniyatni tushunishini osonlashtiradi deb hisoblashadi²³. L.Venutti milliy-madaniy leksikani tarjima qilishning forenizatsiya va domestikatsiya usullarini qayd etib o'tadi²⁴. Shuningdek, ekplitatsion parafraza qilish va additsiya, ya'ni matn ichida qo'shimcha ma'lumot keltirish etnomadaniy leksikaning milliy koloritini tarjimada to'liq ochib berishga xizmat qilib, ba'zi hollarda, uni tarjimada tushirib qoldirish ham samarali ekanligi haqidagi fikrni ham uchramiz.

Tadqiqotimiz manbasi hisoblangan "Kecha va kunduz" asarining dastlabki bobini muallif 1935-yilda "Sovet adabiyoti" jurnalining uchinchi sonida, ikkinchi bobini o'sha yili "Guliston" jurnalining o'ninchi sonida, 1936-yil oktyabr oyida esa butun romanni kitob holida nashr ettiradi. Asar 2014-yilda o'zbek tarjimonlari O.M.Mo'minov va A.A.Hamidov, shuningdek, 2019-yilda xorijlik tarjimon K.Fort tomonidan ingliz tiliga tarjima qilingan. Mazkur asarda qo'llanilgan arxaizmlarni tarjima qilishda lingvomadaniy xususiyatlarning reprezentatsiyasiga to'xtalamiz.

Asardagi "*sevinchilamoq*" leksemi leksik-fonetik arxaizm bo'lib, u hozirgi o'zbek tilida yaxshi xabar yetkazganlik uchun mukofot so'ramoq, rag'bat tilamoq, suyunchi so'ramoq ma'nolarini ifodalaydi. Uning hozirgi o'zbek tilida "*suyunchi*" otidan yasalgan "*suyunchilamoq*" fe'lini keltirish mumkin. Garchi bu shakl hozirda mavjud ayrim lahjalarda muayyan darajada faolligini saqlab qolgan bo'lsa ham, o'zbek adabiy tili uchun allaqachon eskilik bo'yog'ini olib ulgurgan. Fikrimizning isboti sifatida keltirishimiz mumkinki, keyingi davrlarda nashr qilingan o'zbek

²⁰Newmark P. Textbook of translation. – New York, London, Toronto, Sydney, Tokyo: Prentice Hall, 1988. – P. 98.

²¹Ivir V. Procedures and strategies for the translation of culture. // Translation Across Cultures. – New Delhi: Bahri, 1987. – P. 35-46.

²²Leppihalme R. Culture bumps. – Clevedon, England: Multilingual Matters, 1997.

²³Nord C. Translation as a process of linguistic and cultural adaptation // Teaching translation and interpreting, 1994. – № 2. – P. 59-67.

²⁴Venutti L. Strategies of translation // Encyclopedia of translation studies. – London and New York: Routledge, 1998. – P. 240-244.

tilining izohli lug‘atlarida *suyunchilamoq* yoki *sevinchilamoq* shaklidagi so‘zlarni uchratmaymiz. Faqat, mazkur so‘zlarning ot shakllari bo‘lmish, “sevinchi” va “suyunchi” leksemalariga quyidagicha izoh keltirib o‘tiladi:

SEVINCHI. *Xushxabar uchun beriladigan in‘om, sovg‘a; suyunchi*²⁵.

SUYUNCHI. *Biron quvonchli voqea to‘g‘risida xushxabar keltiruvchiga beriladigan sovg‘a, mukofot; sevinchi*²⁶.

Cho‘lponning “Kecha va kunduz” romanida, shuningdek, Abdulla Qodiriyning “O‘tkan kunlar” romanida qo‘llanilgan “*sevinchilamoq*” shakli mazkur so‘zning eskirgan ekanligi haqidagi fikrimizni asoslaydi. Ma‘lumki, bu kabi milliy kolorit va madaniy o‘ziga xoslikka ega an‘ana, urf-odat va qadriyatlarni tarjimada muqobil shaklda ifodalash, o‘quvchiga tushunarli shaklda yetkazish tarjimada yuzaga keladigan muammolardan biri hisoblanadi.

“Kecha va kunduz” romanida “*sevinchilamoq*” arxaizmi orqali o‘zbek milliy madaniyatiga xos bo‘lgan “*suyunchilash*”, “*suyunchi olish*” urf-odati ko‘rsatilgan. Asarning bosh qahramoni Zebi va uning yaqin dugonasi Saltanatni oydinko‘llik o‘rtog‘i Enaxon uyiga mehmonga chaqiradi. Ular yarim tunda manzilga yetib kelishadi, aravakash uy oldida to‘xtab eshikni taqillatganida yoshi katta kampir eshikni ochadi, avvaliga yarim kechasi kim kelganini tushuna olmagan kampir, qizlarning kulishidan mehmonlarning Saltanat va Zebi ekanligini angelaydi hamda eshikni ochishi bilan, ularning kelgani haqida birinchi bo‘lib uy kattalariga xabar yetkazish va buning evaziga *suyunchi olish* uchun shoshib ichkariga ketadi:

Asliyat matni Cho‘lpon, “Kecha va kunduz”, 24-bet	“Night and day”, O.M.Mo‘minov va A.A.Xamidovlar tarjimasi, 24-bet	“Night and day”, K.Fort tarjimasi, 63-bet
<p><i>Qizlar kuldilar. Kampir qizlarning kulishini eshitganidan keyin mehmonlarning kimligini angladi:</i></p> <p>– <i>Ha-a-a, Saltanatxonlardir? – dedi u.</i></p> <p><i>Shu so‘z bilan birga kichkinagina zanjirining shiriqlab tushgani va eshikning g‘ichirlab ochilgani eshitildi. Kampircha eshikni ochar-ochmas sevinchilamoq uchun ichkariga yugurgan edi.</i></p>	<p><i>Girls have laughed for such talking. After hearing girls’ laugh the old woman understood who guests were really.</i></p> <p>– <i>Well, it is Saltanatkhan, – said she.</i></p> <p><i>Together with word the chain in door was taken out and the door opened sounding.</i></p>	<p><i>The girls laughed. When the old woman heard their giggling she suddenly understood who was asking.</i></p> <p><i>“Ah, Saltanat, is that you?” she asked.</i></p> <p><i>With the other girls heard the rustling of the small chain as it fell and the creaking of the door. Leaving the door half open, the old woman ran into the ichkari for suyunchi.</i></p>

O‘zbek madaniyatida uzoq safarga yoki harbiy xizmatga ketib, sog‘-salomat qaytib kelgan kishi to‘g‘risida, yoki oilada farzand tug‘ilgani haqida sevinchli xabarni otaga, oila boshlig‘iga birinchi bo‘lib yetkazib, evaziga pul, kiyim yoki jonliq shaklida sovg‘a olish urf-odati mavjud bo‘lib, mazkur urf-odat qonuniy

²⁵ <https://www.izohli.uz/words/SEVINCHI>

²⁶ <https://www.izohli.uz/words/SUYUNCHI>

shaklga ham ega. Xususan, farzandli bo‘lgan onalarga Davlat xizmatlari markazlari yoki O‘zbekiston Respublikasi Yagona interaktiv davlat xizmatlari portali tomonidan “suyunchi puli” beriladi. Asarda tasvirlangan voqealarda, o‘zbek milliy madaniyatida aynan biror quvonchli voqea-hodisa to‘g‘risida birinchi bo‘lib xushxabar keltirish va buning evaziga sovg‘a umid qilish bilan bog‘liq urf-odatimiz “*sevinchilamoq*” lingvokulturemasi orqali yuzaga chiqadi. Bu odatdan bexabar bo‘lgan o‘quvchi uchun kampirning mehmonlarni kutib olmasdan, eshikni ochiq qoldirib, ichkariga kirib ketishi hurmatsizlik bo‘lib tuyulishi mumkinligi uni tarjimada muvofiq ifodalashni taqozo qiladi.

Xususan, mazkur asarning O.M.Mo‘minov va I.A.Xamidovlar tomonidan qilingan tarjimasida, afsuski, “*sevinchilamoq*” urf-odati tushirib qoldirilganini ko‘rishimiz mumkin. K.Fort o‘z tarjimasida mazkur linguokulturemani “*suyunchi*” shaklini keltirish orqali ifodalab, uni matnda saqlab qoladi. Bizning fikrimizcha, *sevinchilamoq* arxaizmini tarjimada ifodalashning bir nechta vositalarini ko‘rib chiqish joiz.

1. Transpozitsiya va transliteratsiya usullarining kombinatsiyasi orqali, fe‘l so‘z turkumiga oid “*sevinchilamoq*” arxaizmining zamonaviy o‘zbek tilidagi ot so‘z turkumiga oid “*suyunchi*” shakliga o‘g‘irish va tarjimada transliteratsiya qilish. Bu lingvokulturemani milliy madaniy xoslikka egaligini ajratib ko‘rsatadi hamda tarjimada o‘zbek xalqiga xos urf-odatning aks etishiga olib keladi. K.Fort aynan shu usuldan foydalanganligi yuqorida o‘z aksini topgan. Lekin na matn ichida, na satr ostida ushbu arxaizmga izoh berilmagan. Bizningcha, bu holatda transliteratsiya qilingan so‘zning mohiyatini ochib berish zarurati mavjud bo‘lib, satr ostida izohlash tavsiya qilinadi.

2. Deskriptiv ekvivalentdan foydalanish orqali “*sevinchilamoq*” arxaizmining ma’nosini bir nechta so‘z bilan izohlab, ochib berish mumkin. Masalan, “present for bringing good news” shaklida tarjima qilish tavsiya qilinadi: *Leaving the door half open, the old woman ran into the house to ask for a present for bringing good news.*

Tadqiqotning “**Lingvokognitiv aspektda arxaizmlarning o‘ziga xos xususiyatlari va tarjimadagi reprezentatsiyasi**” deb nomlangan uchinchi bobi kognitiv tilshunoslikda diaxron yo‘nalishning asosiy paradigmalari, arxaizatsiyaning arxaik konseptlar tarjimasiga ta’siri hamda freym nazariyasiga ko‘ra arxaizmlarning tarjimadagi reprezentatsiyasidagi o‘rniga bag‘ishlangan.

Tilning deyarli barcha sathlarida kognitiv tilshunoslik bo‘yicha tadqiqotlar amalga oshirilgan bo‘lishiga qaramay, sinxron yo‘nalishning kuchli ustuvorlik kasb etishi, bir nechta istisnolardan tashqari, diaxron aspektda amalga oshirilgan tadqiqotlar deyarli uchramaydi. Buning asosiy sababi esa, o‘tmishda tildan foydalanuvchilar nutqidagi konseptlarni o‘rganish va konseptual maydonlarni shakllantirishning murakkabligi, eskirgan tildagi arxaizm va istorizmlarning semantik maydonini shakllantirish qiyinligidan kelib chiqadi. Ammo tilga kognitiv aspektdagi diaxron yondashuv tilning rivojlanish va o‘zgarish tendensiyasini aniqlashga yordam berishi bilan bir qatorda, tarixiy asarlar tarjimasida adekvatlikni ta’minlashi ham e’tiborga loyiqdir.

Diaxron yondashuv asosida tadqiqot olib borgan lingvokognitologlar, asosan, tildagi o'zgarishlarga, jumladan, tilning tarixiy rivojlanishiga qanday kognitiv jarayonlar ta'sir qilishiga, bu qanday semantik o'zgarishlarga olib kelishiga e'tibor qaratganliklari kuzatiladi. G.Nasrullayeva ta'kidlaganidek, "...ba'zi so'zlar zamiridagi asl bilim arxaiklashishi va so'z yangi konseptual mohiyati bilan yashay boshlashi mumkin"²⁷. Chunki til tinimsiz rivojlanib, o'zgarib boradi, bu dinamik jarayonda ba'zi konseptlar eskirib, iste'moldan butkul chiqib ketse, ba'zi konseptlarning ma'nosi torayadi. Ba'zi konseptlar bir sohadan boshqa sohaga ko'chib o'tadi va mazkur jarayon *freym ko'chishi* (frame shift) deb ataladi. Freym termini ilk bor G.Beytson tomonidan qo'llanilgan bo'lib, u interpretativ freymlarning metaxabar nazariyasidagi o'rniga ahamiyat berib, freymlarning kommunikativ aktda nima sodir bo'layotganini tushuntirishga xizmat qilishiga e'tibor qaratadi²⁸. Keyinchalik, uning fikrlarini E.Goffman davom ettirib, freymni interpretatsion sxema sifatida talqin qilar ekan, uning shaxs yoki ijtimoiy guruhlarga muayyan hodisalar yoki faoliyatning joylashuvini aniqlash, idrok etish va belgilashga imkon yaratishini ta'kidlaydi²⁹. Freymlash real hayotdagi muayyan aspektlarning eng muhimlarini tanlab, tizimlashtirishni o'z ichiga olib, lisoniy va nolisoniy omillar konekstdan kelib chiqib freymlarning qismlarini faollashtiradi. Nutqdagi har bir so'zning freymlarga birlashishi uni muloqotning ajralmas qismi ekanligidan dalolat beradi. Freymlar insonning uzoq muddatli xotirasida passiv ravishda saqlanib turadi va nutqiy faoliyat davomida qayta tiklanadi. Bundan tashqari, freymlar milliy madaniy xatti-harakat va jarayonlarning, urf-odatlarining interpretativ manbasi bo'lib xizmat qiladi. Muayyan jamiyatga mansub insonlar o'z milliy madaniyatiga oid faoliyatlarni ongli ravishda amalga oshirishsa ham, boshqa madaniyatga mansub shaxs uchun bu freymga mansub birliklarni to'g'ri anglashi qiyinchilik tug'diradi. Shu sababli, freymlar milliy-madaniy faoliyatda nimalar sodir bo'lishi mumkinligi, voqea-hodisalarning sodir bo'lish ketma-ketligini oldindan ko'ra olish va taxmin qilish imkonini beradi.

Muayyan til birligi, odatda, bir nechta freymlarga mansub bo'lishi mumkin, lekin aynan kontekstdan kelib chiqib, uning qaysi freymga mansubligi anglashiladi. Freym dinamik strukturadir, chunki uning komponentlari doimiy o'zgarishda bo'lib, ba'zida bir freymga mansub konsept boshqa freymga ko'chishi (frame shift) kuzatiladi.

Freym ko'chishi hodisasi dastlab M.Minskiy, D.Rumelxartning ishlarida yoritilgan bo'lsa ham³⁰, "*freym shift*" termin sifatida ilk bor kognitiv tilshunoslikda S.Kulson tomonidan kiritilgan. Leksemaning nutq jarayonining o'zida bir freymdan ikkinchi freymga ko'chishi "*freym shift*" hodisasi bo'lib, dastlab hodisa

²⁷Nasrullayeva G.S. Antoropotsentrik metaforaning lisoniy, kognitiv va lingvomalniy aspekti: Filol. fan. fals. dokt. diss. – Farg'ona, 2019. – B. 57-66.

²⁸Bateson G.A. Theory of play and phantasy // Psychiatric Research Reports. – Cambridge, Massachusetts, London, England: The MIT press, 1954. – № 2. – P. 39.

²⁹Goffman E. Frame Analysis: An Essay on the Organization of Experience. – London: Harper and Row, 1974. – P. 73.

³⁰ Minsky M. Jokes and the logic of the cognitive unconscious. – Massachusetts Institute of Technology, 1980. – P. 10; Rumelhart D.E., Smolensky P., McClelland J.L., & Hinton G.E. *Schemata and Sequential Thought Processes in PDP Models*. Readings in Cognitive Science. – Michigan: Morgan Kaufmann, 1986. – P. 33.

bir freym doirasida ifodalanadi, keyin esa, soʻzlovchi shunday bir soʻz qoʻllaydiki, natijada, uning yuqoridagi soʻzlari aslida boshqa freymga mansub ekanligi tinglovchiga ayon boʻladi.

Freym koʻchishi hodisasi kognitiv tilshunoslikda, asosan, sinxron nuqtayi nazardan izohlanib, nutq sodir boʻlayotgan paytning oʻzida soʻzlovchining nutqidagi birlik bir freymdan ikkinchi freymga oʻtishi bilan tavsiflanadi. S.Kulson taʼbiri bilan aytganda, “*Frame-shifting is semantic reanalysis in which existing elements in the contextual representation are reorganized into a new frame*”³¹. Yaʼni muayyan bir konseptning kontekstual reprezentatsiyasidagi elementlarning boshqa yangi freymga koʻchish hodisasi *freym shift* deb ataladi. Freym koʻchishi natijasida tinglovchi eshitganlari haqida qayta fikrlashiga toʻgʻri keladi, shu bilan, qayta idrok qilish bilan bogʻliq kognitiv jarayon sodir boʻladi.

Freym koʻchishi hodisasi baʼzan metonimik munosabatlarga asoslanadi va tinglovchi dastlab nazarda tutilgan fikrning semantik qayta ishlanishi natijasida, aslida, boshqa fikr nazarda tutilganini anglab oladi. Shuningdek, mazkur hodisa ikki va undan ortiq freymlarda erkin harakatlana oluvchi konseptlarning harakatiga asoslanadi.

Ammo baʼzida ushbu konseptning oʻzi mansub boʻlgan freymlardan biridagi oʻrni (*slot*) arxaizatsiyaga uchrash holati ham kuzatiladi. Hozirgi zamonaviy adabiy tilimizda muayyan freymga mansub konseptlar, oʻtmishda umuman boshqa freymga mansub boʻlgan boʻlishi va keyinchalik uning qoʻllanilish doirasi qisqarib, isteʼmoldan chiqishi (arxaik konseptlar), yoki yangi freymga koʻchib oʻtishi mumkin. Yuqoridagi S.Kulsonning freym shift nazariyasidan farqli ravishda, ikkinchi hodisa konseptlarning diaxron harakati ustiga quriladi va uni arxaik freym shift hodisasi deb atash maqsadga muvofiqdir. Freym koʻchishi va arxaik freym koʻchishi hodisalarining farqlarini quyidagilarda koʻrish mumkin:

- Freym koʻchishi nutq jarayoni amalga oshayotgan paytning oʻzida, spontan ravishda sodir boʻlsa, arxaik freym koʻchishi, farqli oʻlaroq, uzoq vaqt davomida shakllanuvchi murakkab hodisadir.

- Freym koʻchishi hodisasi inson ongida sodir boʻluvchi psixologik-kognitiv jarayon boʻlib, unda berilgan maʼlumotni tinglovchi oʻz ongida qayta ishlaydi. Arxaik freym koʻchishi esa, leksemalarning freymlardagi harakatining qaysi davrda faol boʻlganligi bilan bogʻliq.

- Agar freym koʻchishida metonimik munosabatlar mavjudligi asosiy shartlardan boʻlsa, arxaik freym koʻchishida esa, soʻz oʻzining asl semasini saqlagan holda, freymlar boʻylab harakatlanishi mumkin.

Arxaik freym koʻchishi hodisasini “vakolat bermoq” feʼli misolida koʻrib chiqamiz.

*Ichkaridan ham uning baqirgan ovozi eshitalardi. Faqat uchala xotin uning nima uchun kayfi ketganidan bexabar edilar. Oʻzaro bir-birlariga nazar tashlashgach, koʻz ishorati ila katta xotinga vakolat berdilar*³².

³¹Coulson S. *Semantic Leaps: Frame-Shifting and Conceptual Blending in Meaning Construction*. – Cambridge: Cambridge University Press, 2001. – P. 12.

³²Choʻlpon A. Kecha va Kunduz. – Toshkent: Ilm-ziyo-zakovat, 2019. – B. 83.

Ushbu parchada keltirilgan “vakolat bermoq” fe’lining izohli lug’atda “*biror shaxs, muassasa, tashkilot, davlat va shu kabilar nomidan ish qilish uchun berilgan huquq, vakillik huquqi*”³³ tarzida izohlanishi uning “Yuridik jarayon” freymiga oid ekanligidan dalolat beradi. Asarda esa, ushbu leksema oilaviy munosabatlar freymiga mansub “ruxsat bermoq” ma’nosida qo’llanilgan. Lekin hozirda ushbu soʻzning “ruxsat bermoq, iltimos qilmoq, soʻramoq” ma’nolari yuridik jarayonlar freymiga koʻchgan, bu esa, uning arxaik freym koʻchishiga uchraganligini isbotlaydi. Arxaik freym koʻchishi hodisasining mohiyatini tushunib tarjima qilish maqsadga muvofiqdir. Yuqoridagi misolda keltirilgan “vakolat bermoq” qoʻshma fe’lini mazkur vaziyatda “*to give authority*”, “*accredit*”, “*empower*”, “*entitle*” shaklida tarjima qilish mumkin emasligi va bunday holatlarning oldini olish esa tarjimaga freym nazariyasini joriy qilishning ahamiyatini ochib beradi.

Davriy jarayonlar natijasida muayyan davrda biror freymning komponenti boʻlgan konseptning bugungi kunda iste’modan chiqishi va arxaik konseptga aylanishi yoki boshqa freymga koʻchib oʻtishi tabiiy hol. Lekin arxaiklashgan va freym koʻchishi hodisasiga uchragan konseptlarni tarjimada ifodalash har ikkala madaniyatga oid freymning komponentlarini atroflicha tahlil qilishni talab qiladi. Buni arxaik freym koʻchishiga uchragan yana bir misol namunasida koʻrib chiqamiz.

Asliyat matni Choʻlpon, “Kecha va kunduz”, 83-bet	“Night and day”, O.M.Moʻminov va A.A.Xamidovlar tarjimasi, 126-bet	“Night and day”, K.Fort tarjimasi, 85-bet
<i>Bu fikringiz xato, ibtidoiy tarbiyani rus maktablaridan boshlab boʻlmaydi, uni milliy maktablarda berish kerak</i> ³⁴ .	<i>It is impossible to begin the bringing up the child in Russian school; you have to insist him to national school.</i>	<i>You can't start him off in a Russian school. You have to send him to a national school first.</i>

Oʻzbek tilining izohli lug’atida “ibtidoiy” leksemasi 3 xil “1. Kishilik tarixining eng qadimgi, dastlabki davriga oid, sinfiy jamiyatdan oldingi; 2. Boshlangʻich, dastlabki; 3. Oddiy, elementar”³⁵ kabi ma’nolarga egaligi keltirilgan. “Ibtidoiy” leksemasi hozirda “*kishilik tarixining eng qadimgi, dastlabki davriga oid, sinfiy jamiyatdan oldingi*” ma’nosini ifodalashda faolroq qo’llaniladi. Kundalik hayotimizda *ibtidoiy odamlar, ibtidoiy jamoa, ibtidoiy jamiyat, ibtidoiy madaniyat, ibtidoiy davr* kabi birikmalarning ishlatilishi fikrimizni tasdiqlaydi. Bu bilan ushbu soʻz “Madaniy evolyutsiya” freymida qo’llaniladi deb hisoblash mumkin. Lekin soʻzning ikkinchi, ya’ni “*boshlangʻich, dastlabki*” ma’nosi iste’moda oʻz faolligini yoʻqotgan va arxaizm sememaga aylangan. Natijada, mazkur semaning oʻzi mansub boʻlgan “Ta’lim-tarbiya” freymidagi oʻrni ham

³³ <https://izoh.uz/uz/word/vakolat> (Murojaat sanasi 25.05.2024)

³⁴ Choʻlpon A. Kecha va Kunduz. – Toshkent: Ilm-ziyo-zakovat, 2019. – B. 83.

³⁵ <https://izoh.uz/uz/word/ibtidoiy> (Murojaat sanasi 25.05.2024).

eskirgan bo‘lib, yuqoridagi misolda keltirilgan “*ibtidoiy tarbiya*” birikmasi hozirgi kunda nafaol hisoblanadi.

Biz “*ibtidoiy*” so‘zining o‘zini eskirgan deya olmaymiz, balki uning muayyan vaziyatlar, ma’lum bir kontekstlardagi, bir so‘z bilan aytganda freymlardagi o‘rni, sloti eskirgan. Vaqt o‘tishi bilan, turli ijtimoiy-siyosiy jarayonlar natijasida ushbu so‘z yangi freym (madaniy evolyutsiya)ga ko‘chib o‘tgan va arxaik freym ko‘chishi sodir bo‘lgan. Ko‘rinib turibdiki, bu vaziyatda hech qanday so‘z o‘yini yoki metonimik munosabat ko‘zga tashlanmaydi, balki konsept turli freymlar orasida harakat qilganligi namoyon bo‘ladi.

Mazkur misolning tarjimadagi reprezentatsiyasidan ayon bo‘ladiki, o‘zbek tarjimonlari “*ibtidoiy tarbiya*” birikmasining ikkinchi qismini tarjimada saqlashga harakat qilishgan bo‘lsa ham, aynan “*boshlang‘ich*” tarbiya ma’nosini ifodalashmagan va tushirib qoldirishgan. Xorij tarjimoni K.Fort esa, buni “*can’t start someone off*” tarzida ifodalashga harakat qilgan bo‘lsa ham, mazkur birikma tarjimada to‘laqonli aks etmagan. Bu holatda tarjimaning aniqligini oshirish uchun quyidagi ekvivalentlardan foydalanish tavsiya qilinadi.

*Starting the **primary education** in a Russian school is not a good idea, you should send them to a national school first.*

Ma’lumki, tarbiya konsepti ingliz tilida o‘zining bir qator ekvivalentlariga ega bo‘lsa ham, uning o‘zbek tilidagi to‘liq mohiyatini va ma’no mazmunini ta’minlash mushkul. Masalan, “*to bring up*” fe’li birikmasi “*katta qilmoq, o‘stirmoq*” ma’nolarini ifodalasa³⁶, “*upbringing – early training, especially, a particular way of bringing up a child*”³⁷ ma’nolarini ifodalaydi. Bu tushunchalarning har ikkalasi bolaning tug‘ilganidan tortib toki balog‘at yoshiga yetgunicha unga g‘amxo‘rlik qilish, ta’lim berish va unga to‘g‘ri xulq-atvor qoidalarini o‘rgatish kabi tushunchalarni ifodalashini qamrab oladi. Lekin mazkur kontekstda, so‘zlovchi tarbiya deganda, aslida ta’lim-tarbiyani nazarda tutadi. Shu bois, mazkur birikma “*primary education*”, “*initial education*”, “*elementary education*”, “*fundamental education*”, “*early education*” kabi ekvivalentlar vositasida ifodalanishi tavsiya qilinadi.

Freym ko‘chishi hodisasining sodir bo‘lishiga jiddiy ta’sir ko‘rsatuvchi yetakchi omillardan biri, insonlarning dunyoqarashidagi o‘zgarishlardir. Zamonning rivojlanishi, tashqi va ichki omillarning ijtimoiy hayotga ta’siri, ba’zan markaziy o‘rinda turuvchi g‘oyalarning ham vaqt o‘tishi bilan eskirishiga olib keladi. Insonlar hayotida yuz beruvchi ijtimoiy-siyosiy omillar ularning lisoniy manzarasidagi o‘zgarishlarga sababchi bo‘lishi natijasida hosil bo‘luvchi arxaik konseptlarni tarjimada ifodalash, mazkur konseptlarning tarixiy strukturasi qayta tiklashni taqozo qiladi.

Arxaik konseptlarni aniqlashning bir qator mezonlari mavjud. Birinchidan, konsept o‘tgan zamonda muayyan mental sohada amalda faol qo‘llangan, hozirgi

³⁶https://dictionary.cambridge.org/dictionary/english/bring-up#google_vignette (Murojaat sanasi 25.05.2024).

³⁷<https://www.merriam-webster.com/dictionary/upbringing> (Murojaat sanasi 25.05.2024).


kunda mazkur sohada passiv ishlatiladigan yoki iste'moldan butkul chiqqan bo'lishi lozim. Bu omil esa, yuqorida izohlaganimizdek, tarixiy konseptual reprezentatsiya sohasining o'z o'rnini boshqa yangi bir tizimga bo'shatib berishi natijasida sodir bo'ladi. Ikkinchidan, arxaik konseptlar milliy-madaniy xoslangan yoki tarkibida lingvomadaniy konnotatsiyani saqlagan bo'ladi. Chunki arxaik konseptlar muayyan xalq va millatning dunyoqarashidagi davriy o'zgarishlardan kelib chiqishini inobatga olsak, ularda o'sha madaniyatga xos ma'nolarni ifodalash vazifasi mavjudligi namoyon bo'ladi. Uchinchidan, zamonaviy tilda arxaik konseptning komponentlari, ma'nolari, subkonseptlari, mazmuni amalda faol qo'llanilishi va mavjudligini nazarda tutish lozim. Masalan, eskirgan manbalarda qo'llanilgan "ojiza" arxaizmi erkak kishining qaramog'ida bo'lgan qiz bolaga nisbatan qo'llanilgan. Bu so'z hozirda o'zining arxaik ma'nosida qo'llanilmasa ham, u anglatgan referent "qiz farzand" amalda faol ishlatiladi. To'g'ri, arxaik konseptlar ifodalagan barcha ma'no nozikliklarini uning zamonaviy ekvivalenti to'liq ifodalay olmaydi. Jumladan, "ojiza" konseptining zaiflik, ojizlik, jismoniy jihatdan kuchsizlik, erkakka qaramlik kabi semalari qiz farzand birikmasida o'z aksini topmaydi. Zero, bu ham insonlarning dunyoni qabul qilishidagi, olamning lisoniy manzarasida qiz farzandga bo'lgan qarashning o'zgarganligi bilan bog'liq hodisadir.

Arxaik konseptlarni tarjima qilish bir nechta bosqichlarni qamrab olishi bilan o'ziga xos ahamiyat kasb etadi. Birinchidan, arxaik konseptning ma'nolarini to'liq ochib berish uchun konseptual distributsiya vositasida uning asliyat tilidagi tarixiy asosi qayta tiklanadi, ikkinchidan, tarjima tilidan uning komponentlariga yaqin bo'lgan til birliklari tanlab olinadi, nihoyat, tanlangan ekvivalentlar saralanib, kontekstga mos variant tanlanadi. Ahamiyatli jihati shundaki, konseptual distributsiya jarayoni juda muhim bo'lib, aynan shu bosqichda arxaik konseptning muqobil ekvivalentlarini tanlash imkoniyati kengayadi.

Quyidagi parchada o'zbek milliy madaniyatiga xos bo'lgan "ahliya" arxaik konseptining lingvokognitiv xususiyatlarini tahlil qilamiz. "Ahliya" so'zi o'zbek tilining izohli lug'atida "Yaqin qarindosh, ayol, xotin"³⁸ ma'nolarini ifodalashidan tashqari, urdu (الیه) tilida ham mavjud bo'lib, asosan, erkak kishining rafiqasi, xotini, ayoli, umr yo'ldoshiga nisbatan qo'llanadi. Arab tili izohli lug'atida esa, "اهله – erkak kishining oilasi"³⁹ shaklida izohlanishini ko'rish mumkin. Fikrlarni umumlashtiradigan bo'lsak, ahliya erkak kishining qaramog'ida bo'lgan, birdan ortiq oila a'zolarini, jumladan, erkak kishining ayol(lar)i, qiz(lar)i, opasi, onasi va boshqalarni o'z ichiga olgan ayollar guruhini anglatadi. Mazkur so'zning konseptual distributsiyasi quyidagi rasmda aks etgan (3.1-rasm).

³⁸<https://www.izohli.uz/words/AHLIYA> (Murojaat sanasi 25.05.2024)

³⁹<https://www.maajim.com/dictionary/%D8%A3%D9%8E%D9%87%D9%92%D9%84%D9%90%D9%8A%D9%91%D9%8C/8/%D9%85%D8%B9%D8%AC%D9%85%20%D8%A7%D9%84%D8%BA%D9%86%D9%8A> (Murojaat sanasi 14.05.2024)



3.1-rasm. “Ahliya” arxaizmining konseptual distributsiyasi

“Ahliya” soʻzining isteʼmolga kirib kelishi diniy qarashlar bilan bogʻliqligini ham rad etib boʻlmaydi, chunki islom dinida oila boshligʻining birdan ortiq xotonga egalik qilishiga ruxsat berilishi ularni umumiy nom bilan atash zaruratini keltirib chiqargan. Mazkur konseptga sinonimik ravishda “ahli ayol”, “ahli oila” kabi birliklarning ham qoʻllanilganligi fikrimizni tasdiqlaydi.

“Ahliya” arxaizmi oʻz ichiga bir qator maʼno nozikliklarini olishi bilan, oʻzbek milliy madaniyatiga xos boʻlgan murojaat birliklaridan biri sifatida xizmat qilgan hamda soʻzlovchining nazarda tutilayotgan shaxsga nisbatan hurmati, odobini yuzaga chiqargan. Oʻzbek tilida “xotinim” deyish qoʻpol eshitiladi, “ahliyam” esa, uning stilistik boʻyoq olgan, muloyimroq shaklidir.

Choʻlpon asarda bir nechta oʻrinlarda “ahliya” leksemasini qahramonlarning muloqoti aks etgan kommunikativ jarayonlarda qoʻllaydi. Quyida asarning yetakchi qahramonlaridan biri ham ota, ham er obrazida tasvirlangan Razzoq soʻfining oʻz akasining vataniga qaytib, birga mehnat qilib, pul topish haqidagi taklifiga yarasha bergan javobidan parcha keltirilgan boʻlib, unda ahliya konseptining tarjimai oʻzbek va ingliz tarjimonlari tomonidan turlicha berilganligini koʻrishimiz mumkin.

Asliyat matni Choʻlpon, “Kecha va kunduz”, 12-bet	“Night and day”, O.M.Moʻminov va A.A.Xamidovlar tarjimai, 16-bet	“Night and day”, K.Fort tarjimai, 53-bet
<p><i>Shu kulimsirash bilan yana bir oz borgandan keyin, bu safar jiddiroq qilib, dedi:</i></p> <p>– Ahliyamiz ham uchchiga chiqqan chevar, xudoga shukur. Ojizamiz ham doʻppi tikishga “farang” boʻlib chiqdi! Roʻzgʻorning koʻpkamlarini oʻzlari bitirishadi. Men bohuzur tasbihimni aylantirib yotsam boʻla beradi!</p>	<p><i>Continuing that smile, he told seriously now: “ – Thanks to God, my wife is a mastered dressmaker. Besides, my daughter also is a skilled skull cap maker. They can earn money for live themselves. Therefore I can be free of all burden of existence”.</i></p>	<p><i>After they had gone a little farther laughing, Razzoq-sufi said seriously: “My wife and daughter are tricky ones, thanks to be God. My daughter sews a skullcap, and it looks as if it was made in Europe! They deal with the household’s needs. As long as I can lie down and turn my prayer beads, everything is fine!”</i></p>

Tarjimalardan ko‘rinib turibdiki, o‘zbek tarjimonlari “*ahliya*” so‘zini tarjima qilishda faqat Razzoq so‘fining xotinini nazarda tutishgan bo‘lsa, K.Fort ham xotinini, ham qizini tarjimada “*wife and daughter*” tarzida beradi. Bu xilma-xillikning asosiy sababi, birinchidan, “*ahliya*” arxaizmining ingliz lingvomadaniyatida mavjud emasligi bo‘lsa, ikkinchidan, mazkur konseptning iste‘moldan chiqqanligi, ya’ni eskirganligidir. Mazkur holatda har ikkala tarjimonning ham tutgan yo‘li o‘ziga xos bo‘lib, umumiy kontekstga mos keladi. Lekin bu ahliya so‘zining faqat “*xotin*” ma’nosida tarjima qilinishini bildirmaydi. “*Ahliya*” arxaik leksemasi kontekstdan kelib chiqib, kimga nisbatan qo‘llanishiga bog‘liq ravishda “*mother*”, “*daughter*”, “*wife*” va ba’zan “*female relative*” shaklida ham tarjima qilinishi mumkin.

XULOSA

1. Arxaizatsiya dunyodagi hamma tillarga xos kognitiv jarayon bo‘lib, uning natijasida yuzaga keluvchi eskirgan so‘zlar qo‘llanilish doirasiga, davriga va chastotasiga ko‘ra guruhlarga ajratiladi. Tranzitsiya hodisasi, ya’ni til birliklarining eski qatlama o‘tishi, fundamental o‘zgarishlarga olib kelishi mumkin. Bunda ko‘pgina tillarda ba’zi til birliklarining iste‘moldan chiqishi eskirgan so‘zlarni klassifikatsiya qilishda davr jihatdan yondashishni taqozo etadi.

2. Til sathlari nuqtayi nazaridan arxaizmlar leksik, semantik, frazeologik, fonetik, orfografik va grammatik arxaizmlar kabi turlarga ajratiladi. Yuqoridagi turlardan tashqari, arxaizmlarni eskirish darajasi, struktur xususiyatlari jihatdan ham turlarga ajratish mumkin. Arxaizmlarni struktur jihatdan tahlil qilish jarayonida aniqlaganimizdek, ikkita so‘zdan iborat birikmalar mavjud bo‘lib, ular birgalikda arxaik birikma hisoblanadi. Ularni biz uch turga ajratish mumkin: a) birikmaning bitta a’zosi arxaizm, ikkinchisi arxaizm emas; b) birikmaning har ikki a’zosi arxaizm; c) birikmaning ikkita a’zosi ham arxaizm bo‘lmagan holatlar ham kuzatildiki, ular faqatgina birikkanda arxaik ma’no kasb etadi.

3. Arxaizmlarning semantik kategoriyalari qatorida tibbiy, kasbiy, zoonimik, fitonimik, toponimik, gidronimik, kosmonimik va vaqt bilan bog‘liq arxaizmlar farqlanadi. Lingvomadaniy jihatdan arxaizmlarning ekologik, moddiy, ijtimoiy madaniyatga doir, shuningdek, urf-odat va an’analarga, imo-ishora va xulq-atvorga hamda nutqiy madaniyatga oid arxaizm turlari mavjud.

4. Turli ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy jarayonlar ta’sirida muayyan konseptlarning xalq ongidagi in’ikosi o‘zgarishi natijasida arxaik konseptlar yuzaga keladi. Arxaik konseptlar – oldingi davrda faol qo‘llangan, hozirgi kunda esa, passiv ishlatiladigan yoki iste‘moldan butkul chiqqan konseptlardir.

5. Tarjima jarayonida arxaizmlarning semantik identifikatsiyasida noto‘g‘ri talqinning kelib chiqishiga sabab bo‘luvchi bir qator omillar mavjud: 1) asliyat matnida keltirilgan arxaizm zamonaviy shaklga ham ega bo‘lib, ma’no jihatdan farqlanishi mumkinligi; 2) arxaik grammatik shakllar zamonaviy tilda mavjud emasligi; 3) o‘zlashmalarning talaffuzda adaptatsiyaga uchragan shakllaridan

tarjimonning xabardor bo'lmashligi kabilardir. Badiiy asarlardagi arxaizmlarning tarixiylik funksiyasini bajarishiga ko'ra tarjima jarayonida arxaik vositalardan foydalanish, modernizatsiya, neytralizatsiya va kombinatsion strategiyalar qo'llaniladi. Biroq arxaizmlar o'zida nafaqat tarixiylikni tashish, balki milliy, madaniy, etnik xususiyatlarni ham mujassam etgani bois, ularni tarjimada berishda, arxaizmlarning lingvomadaniy jihatlari asosiy e'tiborda bo'lishi shart.

6. Vaqtni bildiruvchi arxaizmlar barcha tillarda mavjud bo'lishiga qaramasdan, turli madaniyatlarda har xil ma'no nozikliklariga ega bo'ladi va ularning lakunar milliy-madaniy xususiyatlarini tarjimada transliteratsiya usuli orqali saqlab qolish asliyat madaniyatining o'quvchi tomonidan tushinilishiga to'siq bo'lishi mumkin. Shu sababli, bu holatlarda ko'p tillarga xos universal birliklardan ekvivalent sifatida foydalanish tavsiya etiladi.

7. Asliyat matnida uchraydigan urf-odat va an'analarni ifodalovchi arxaizmlarni tarjima qilishda, tarjima tilida mavjud bo'lgan funksional ekvivalentdan foydalanish tavsiya etiladi. Bunday funksional ekvivalentlar mavjud bo'lmagan holatlarda arxaizmlarni transliteratsiya orqali, yoki deskriptiv usul orqali o'girish maqsadga muvofiq.

8. Muallifning badiiy asarda gender xususiyatga, evfemistik va disfemistik bo'yoqdorlikka ega arxaizmlarni qo'llashidan asosiy maqsadini, muallifning ichki intensiyasini inobatga olib tarjima qilish lozim. Muayyan xalq va uning tili, madaniyatini ifodalovchi etnonimlar tarjimasida esa, tarjimon davr nuqtayi nazaridan etnonimga bo'lgan munosabatning axloqiy-etik jihatlarni nazarda tutishi zarur.

9. Arxaik freym ko'chishi hodisasi ikki va undan ortiq freymlarga oid birliklarning davr jihatdan harakatlanishi, ya'ni o'tmishda umuman boshqa freymga mansub bo'lgan arxaizmlarning keyinchalik yangi freymga ko'chib o'tishidir. Bu hodisaga uchragan birliklarni tarjima qilishda, ularning tarixiy freymdagi slotini (o'rnini) aniqlash adekvatlikka erishishidagi muhim jihat hisoblanadi.

10. Arxaik konseptlarni tarjima qilishda konseptual distributsiyadan foydalanib, uning asliyat tilidagi tarixiy asosini qayta tiklash mumkin, bu esa, ularning tarjima tilida ma'no jihatdan yaqin bo'lgan til birliklarini tanlash va saralash imkoniyatini kengaytiradi.

Amaliy taklif va tavsiyalar:

11. Freym nazariyasiga ko'ra, arxaizmlar tarjimasida arxaizm sememalarning shu freymdagi eskirgan slotlarini (o'rinlarini) qayta tiklashda semantik, pragmatik, stilistik va kontekstual ekvivalentlarni tanlash mumkin bo'ladi. Tarjima tilida mavjud bo'lmagan arxaizmlarni esa, ularga yondosh yoki o'xshash konnektorlar yordamida tarjimada berish taklif etiladi.

12. Badiiy asarlardagi arxaizmlarning stilistik va gender xususiyatlarini nazariy jihatdan o'rganish, ularni tarjimada berish bo'yicha amaliy taklif va tavsiyalar ishlab chiqishni tilshunoslik hamda tarjimashunoslikning istiqboldagi

tadqiqot ishlaridan deb hisoblaymiz. Shuningdek, bu kabi tadqiqotlar arxaizmlarning bir tilli va ko‘p tilli izohli zamonaviy lug‘atlarini onlayn hamda bosma shaklda yaratish imkonini beradi.

**НАУЧНЫЙ СОВЕТ DSc.03/30.12.2019.Fil.01.10 ПО ПРИСУЖДЕНИЮ
УЧЕНЫХ СТЕПЕНЕЙ ПРИ НАЦИОНАЛЬНОМ УНИВЕРСИТЕТЕ
УЗБЕКИСТАНА ИМЕНИ МИРЗО УЛУГБЕКА**

НАЦИОНАЛЬНЫЙ УНИВЕРСИТЕТ УЗБЕКИСТАНА

МАДИЁРОВА ВАЛИДА КУВОНДИК КИЗИ

**РЕПРЕЗЕНТАЦИЯ ЛИНГВОКУЛЬТУРОЛОГИЧЕСКИХ И
ЛИНГВОКОГНИТИВНЫХ ОСОБЕННОСТЕЙ ПРИ ПЕРЕВОДЕ
АРХАИЗМОВ**

**(на примере переводов произведения Чулпана «Ночь и день» на
английский язык)**

**10.00.06 – Сравнительное литературоведение, сопоставительное языкознание и
переводоведение**

**АВТОРЕФЕРАТ ДИССЕРТАЦИИ ДОКТОРА ФИЛОСОФИИ (PhD) ПО
ФИЛОЛОГИЧЕСКИМ НАУКАМ**

Ташкент – 2025

Тема диссертации доктора философии (PhD) филологическим наукам зарегистрирована в Высшей аттестационной комиссии при Министерстве высшего образования, науки и инноваций Республики Узбекистан за B2022.4.PhD/Fil2953.

Диссертация выполнена в Национальном университете Узбекистана имени Мирзо Улугбека. Автореферат диссертации на трёх языках (узбекском, русском, английском (резюме)) размещён на веб-странице Научного совета (www.nuu.uz) и информационно-образовательном портале «Ziynet» (www.ziynet.uz).

Научный руководитель:	Джумабаева Жамила Шариповна доктор филологических наук, профессор
Официальные оппоненты:	Джусупов Нурсултан Маханбет улы доктор филологических наук, доцент Кувватова Дилрабо Хабибовна доктор филологических наук, профессор
Ведущая организация:	Ташкентский государственный университет узбекского языка и литературы

Защита диссертации состоится «12» марта 2025 года в 10:00 часов на заседании Научного совета DSc.03/30.12.2019.Fil.01.10 по присуждению ученых степеней при Национальном университете Узбекистана. Адрес: 100174, г. Ташкент, ул. Фараби, 400. Тел: (+99871) 246-08-62; факс: (+99871) 246-65-24; e-mail: nauka@nuu.uz. Национальный университет Узбекистана, Факультет зарубежной филологии (3-этаж, 3-11 аудитория).

С диссертацией можно ознакомиться в Информационно-ресурсном центре Национального университета Узбекистана (зарегистрирована за № ____). Адрес: 100174, г. Ташкент, ул. Университетская, д. 4. Тел. (+99871) 246-02-24.

Автореферат диссертации разослан « ____ » _____ 2025 года.
(протокол реестра рассылки за № ____ от « ____ » _____ 2025 года).

И.А.Сиддикова
Председатель Научного совета по
присуждению ученых степеней,
докт. филол. наук, профессор

Ш.О.Назирова
Ученый секретарь Научного совета по
присуждению ученых степеней,
канд. филол. наук, доцент

С.Э.Камилова
Председатель научного семинара при
Научном совете по присуждению
ученых степеней, докт. филол. наук,
профессор

ВВЕДЕНИЕ (аннотация диссертации доктора философии (PhD))

Актуальность и востребованность темы диссертации. Изучение процессов устаревания и архаизации слов, вошедших в языковой пласт в результате межкультурного взаимодействия народов мира и литературных связей, требует поиска решений проблем их перевода. На сегодняшний день актуальным становится выявление уникальных характеристик каждого языка, а также сравнительное исследование лингвокультурных и лингвокогнитивных особенностей языковых единиц. В этом случае существует необходимость исследования, посвященным передаче архаичных единиц в переводе, взаимосвязи современных и устаревших лексических единиц, а также обеспечению адекватности перевода с учетом архаизмов.

Бурное развитие искусственного интеллекта в мире и его всестороннее проникновение в нашу жизнь, а также современные технологические инновации повлияли на подходы к переводоведению, обеспечивающим международную коммуникацию. Однако DeepL, Microsoft Bing Translator, Copy AI, Chat GPT, SYSTRAN и другие приложения для онлайн-перевода, основанные на искусственном интеллекте, все еще неэффективны в обеспечении качественного перевода исторических текстов. Также изучение существовавших в прошлом архаичных концептов на основе антропоцентрической парадигмы, ярко демонстрирующей национальную идентичность нашего языка, требует анализа ассимилятивных и лексико-семантических особенностей архаизмов в сравнительном аспекте. Разработка предложений по семантической идентификации архаизмов показывает, что существует большая потребность в определении способов отражения национальных особенностей при переводе архаизмов.

В результате проводимых в нашей стране реформ значительно расширился процесс перевода ярких образцов узбекской художественной прозы на мировые языки как узбекскими переводчиками, так и зарубежными специалистами. Известно, что архаизмы, встречающиеся в художественной литературе, в большинстве случаев опускаются при переводе. Основная причина этого в том, что переводчики недостаточно изучили лексико-семантические, концептуальные и контекстуальные особенности архаизмов. С этой точки зрения, большое значение имеет комплексное исследование архаизмов, изучение их национальных, исторических и когнитивных особенностей, присущих узбекскому менталитету.

Представленное диссертационное исследование в определенной степени будет способствовать выполнению задач, предусмотренных рядом законодательных и нормативно-правовых актов: в Постановлениях Президента Республики Узбекистан №ПП-5117 от 19 мая 2021 года «О программе комплексных мер по развитию системы издания и распространения книжной продукции, повышению культуры чтения», в Указах Президента Республики Узбекистан №УП-60 от 28 января 2022 года «О Стратегии развития Нового Узбекистана на 2022-2026 годы», и № УП-158

от 11 сентября 2023 года «О Стратегии «Узбекистан – 2030» и в других нормативно-правовых документах.

Соответствие исследования приоритетным направлениям развития науки и технологий республики. Диссертационное исследование выполнено в соответствии с приоритетным направлением развития науки и технологий в Республике Узбекистан: I. «Формирование системы инновационных идей и пути их реализации по социальному, правовому, экономическому, культурному, духовно-просветительскому развитию информационного общества и демократического государства».

Степень изученности проблемы. По проблеме архаизмов опубликовано множество научных исследований в зарубежной и узбекской лингвистике. В частности, особое значение имеют исследования Е.Д.Поливанова, А.Н.Кононова, Н.А.Баскакова, В.В.Решетова, С.И.Ибрагимова, У.Т.Турсунова, Ф.К.Камолова, А.Мухторова, Ш.Рахматуллаева, Д.А.Абдувалиевой, А.Д.Орозбоева и других, касающиеся классификации устаревших слов в узбекском языке, а также особенностей архаизмов и историзмов¹. Особенности группы устаревших слов, относящихся к английскому языку, освещены в трудах Р.Тренча, Л.Кэмпбелла, Т.Бэйнона, Р.Коулмана, Х.Джексона, А.Петерсона, Д.Ринге, И.Р.Гальперина, Э.Сачковой и А.Николова², также проблема различия и классификация архаизмов и историзмов освещена в работах Н.М.Шанского, М.Н.Нестерова, Л.Л.Касаткина, Т.А.Расторгуевой, Л.Липки, И.В.Шпотовой, Т.В.Коростелевой и Б.Й.Нормана³. Однако объем работ, посвященных

¹Поливанов Е.Д. Русская грамматика в сопоставлении с узбекским языком. – Ташкент: Государственное издательство УзССР, 1934. – 194 с.; Кононов Н.А. Грамматика узбекского языка, –Ташкент: Государственное издательство УзССР, 1948. – 287 с.; Баскаков Н.А. Тюркские языки. – Москва: Издательство АН ССР, 1952. – 134 с.; Решетов В.В. Узбекский национальный язык // Вопросы формирования и развития национальных языков. –Москва: Издательство АН ССР, 1960.; Решетов В.В. Основы фонетики и грамматики узбекского языка. –Ташкент: Средняя и высшая школа УзССР, 1961. – 122-142 с.; Решетов Р.Р., Иброхимов С.И., Турсунов У.Т., Камолов Ф.К. Ҳозирги ўзбек адабий тили. – Тошкент: Фан, 1966. – 94 б.; Турсунов У, Мухторов А., Рахматуллаев Ш. Ҳозирги ўзбек адабий тили. – Тошкент: Ўзбекистон, 1992. – 122-270 б.; Абдувалиева Д.А. Алишер Навоий тарихий асарлари лексикаси: Фил.фан.фалс.докт... дис. автореферати. –Тошкент, 2017. – 64 с.; Ўрозбоев А.Д. Огаҳийнинг тарихий асарлари лексикаси: Филол. фанл. докт.дисс.–Т., 2018. – 194 с.

